

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____ f.f.d. B.Abdushukurov

“ _____ ” _____ 2018-yil

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limi yo‘nalishi IV kurs 405 – guruh talabasi

Berdishukurov Mahmud Ashur o‘g‘lining

“8-SINFDA SODDA GAP SINTAKSISINI O‘QITISH METODIKASI”

mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ F.Jumayev

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

_____ K.Dosanov

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

_____ S.Yoqubova

TTYSI akademik litseyi o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrası mudiri, f.f.n.

_____ I.Azimova

“ _____ ” _____ 2018-yil

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TA'LIM BOSQICHLARIDA SINTAKSIS BO'LIMINI O'QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI	
1.1. So'z birikmasi sintaksisi.....	9
1.2. Sodda gap sintaksisi.....	18
1.3. Qo'shma gap sintaksisi.....	18
II BOB. SINTAKSIS BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI	
2.1. Sodda gaplarni o'qitishda til bo'limlari bilan bog'lab o'rgatish.....	28
2.2. 8-sinfda sintaksisni o'rganishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar.....	43
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI	
3.1. Ta'lim bosqichlari ona tili darsliklarida masalaning berilishi	9
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	18
Xulosa.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	63

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Davrimizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur"¹ deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat jtimoiy tizmining barcha sohalari faol bo'lmoqliklari shart.

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifasi o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, ma'lum fanlar yuzasidan turli bilim va malakalarni hosil qilish, to'la savodxonlikni ta'minlash, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat². Bu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq o'quvchilarni ongli, yuksak saviyali, g'oyaviy siyosiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda o'qituvchining bilimi yoki undagi to'plangan tajribaning o'zi yetarli emas. Jamiyat hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlar barcha sohalar kabi ilmu fanning tubdan o'zgarishi, yangicha rivoj topishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonning o'z istiqloliga erishishi o'zbek til-shunosligining rivoji va uning taraqqiyoti yo'llarini belgilab berishda, o'rganishda yangi davr ochdi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov "Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati

¹Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.

²Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури//ЎЗР Халқ таълими вазирлигининг ахборотномаси. №1. – Тошкент. 47-бет.

bilan, birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir³”, – degan edilar.

Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish millat ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan yo‘nalashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Bizning tanlagan malakaviy bitiruv ishimizning mazmuni ham yuqoridagi fikrlarga asoslanib ona tili ta’limida sintaksisni o‘rgatish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Har qanday muloqotning asosida to‘g‘ri tuzilgan nutq yotadi. Nutqni to‘g‘ri tuzish uchun esa o‘quvchilardan ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar talab etiladi. Nutq ishtirokchilarining to‘g‘ri nutq tuzish malakalarini quyi sinflardan shakllantira borish lozim, bu jarayonda sintaksisning o‘rni katta albatta. Chunki fikr ifodalovchi birlik bu gap hisoblanadi. Gap esa, albatta, gap bo‘laklaridan tuziladi. Gap bo‘laklarini to‘g‘ri ishlata bilish muammosi bugungi ona tili ta’limining diqqat qaratilishi lozim masalalaridan biri hisoblanadi.

BMIning maqsad va vazifalari. Malakaviy bitiruv ishidan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga grammatik tushunchalarni o‘rgatish. Shu jarayonda sintaksisga oid bilimlarni gap va uning bo‘laklari tushunchasini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni o‘rgatish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilishdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun BMI oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

– o‘zbek tili sintaksisida gap bo‘laklarining shakliy tuzilishini o‘rganib chiqish;

– o‘zbek tili sintaksisida gap bo‘laklarining mazmuniy tuzilishini tahlil qilish;

– o‘zbek tili gap qurilishida bosh bo‘laklarning o‘rni va o‘rganilishini tahlil qilish;

³ Karimov I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”. – T.: O‘zbekiston, 1992.

– ona tili darslarida gap bo‘laklari hamda gap va uning turlarini o‘rgatish usullarini ishlab chiqish.

Mavzuning o‘rganilishi. Sintaksisning nazariy asoslari G‘.A.Abdurahmonov, Sh.Sh.Shoabdurahmonov, A.A.Xojiyevlar tomonidan ishlab chiqilgan⁴. Keyinchalik bu tadqiqotlar N.Mahmudov, A.Nurmonovlar tomonidan davom ettirildi⁵. Sintaksisni nazariy planda batafsil o‘rgangan olimlardan yana biri B O‘rinboyevidir⁶. Shuningdek, M.Omilxonovning “Maktabda sodda gap sintaksisini o‘rgatish⁷”, “Maktabda ona tili sintaksisini o‘rgatish” nomli metodik qo‘llanmalarida⁸ nazariy qonun-qoidalarni o‘quvchilar ongiga singdirish, bilimlarni mustahkamlash, shu jarayonda gapning intonatsion xususiyatlari ustida ishlash, yoshlarning tafakkurini o‘stirish masalalari atroflicha bayon etilgan. Mazkur qo‘llanmalarda gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini o‘rgatish metodikasi ham ancha keng ilmiy-nazariy tadqiq qilingan. Ammo bu kabi qo‘llanmalarda akademik litseylarda gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari borasida ma’lumotlar uchramaydi.

Chunki akademik litseylar ta’lim sohasidagi yangi hodisa bo‘lib, bu boradagi ilmiy-pedagogik muammolar o‘zining munosib yechimi, mukammal tadqiqotlari va ijrochisini kutib turibdi. To‘g‘ri, oliy ta’lim muassasalari filologiya fakultetlarining “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”, akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanlari uchun yaratilayotgan darslik va qo‘llanmalarda mazkur muammoga bir qadar munosabat bildirilgan.

Mazkur masalaning o‘qitish bilan bog‘liq metodik jihatlari kompleks tahlil qilingan emas.

⁴Абдурахмонов Ф., ва б. Ўзбек тили грамматикаси. II қисм, Синтаксис. – Тошкент: Фан нашриёти, 1976.

⁵Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 1995.

⁶Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили сўз бирикмаси ва содда гап синтаксисидан маърузалар. – Тошкент, 1990.

⁷Омилхонова М. Мактабда содда гап синтаксисини ўргатиш.– Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

⁸Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rganish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

Tadqiqot predmeti. Ona tili fani o‘qituvchilarining axborotli – kasbiy tayyorgarligini ta’minlashning texnologik tizimi, shart – sharoitlari, o‘ziga xos xususiyatlari va samaradorligi.

Ilmiy yangligi: Sintaksisni kompleks tarzda o‘quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish usullarini ishlab chiqish va amaliyotda sinab xulosalar chiqarish muammosi ishning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodlari. Ishda asosan tavsifiy, qisman qiyosiy, lingvopoetik, uslubiy, ba’zi hollarda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqotning metodologik asoslarini Respublikamiz Prezidentining til haqidagi qarashlari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, Davlat ta’lim standartlari tashkil qiladi.

I BOB. TA'LIM BOSQICHLARIDA SINTAKSIS BO'LIMINI O'QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

1.1. So'z birikmasi sintaksisi

Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'z birikmalari, gap turlari o'rganiladi. "Sintaksis" grekcha so'z bo'lib "tuzish" demakdir. Mustaqil so'zlar ma'no va grammatik jihatdan bir-biriga bog'lanib, so'z qo'shilmasini hosil qiladi.

So'z qo'shilmasidagi so'zlar bir-biri bilan ikki xil bog'lanadi: 1) teng bog'lanish; 2) tobe bog'lanish. Teng bog'lanishda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi, bir-biri bilan sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: dehqonlar va hasharchilar; dehqonlar, hasharchilar. Tobe bog'lanishda bir so'z boshqasiga tobe bo'ladi. Bir-biriga tobe bog'langan so'zlar so'z birikmasini hosil qiladi. Ega va kesimning bir-biri bilan bog'lanishi so'z birikmasi hisoblanmaydi, balki gap hisoblanadi: *Dehqonlar kelishdi*. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan birining boshqasiga tobe bo'lib bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi. So'z birikmasida bosh va ergash so'z bo'ladi. So'z birikmasida ma'nosi izohlanayotgan so'z bosh (hokim) so'z, uning ma'nosini ravishlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z ergash (tobe) so'z hisoblanadi. So'roq hamma vaqt bosh so'zdan ergash so'zga beriladi: *Rangli qalam (qanday qalam?)*. Bosh so'z ot, sifat, son, olmosh yoki harakat nomi bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi: *baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, vazifani bajarish*. Bosh so'z fe'l va uning ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalansa, fe'lli birikma hisoblanadi: *kitobni o'qish, ishni bajarib, tez kelgan*. So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sodda birikma faqat ikkita so'zdan tuzilgan bo'lishi mumkin (bunda yordamchi so'zlar ham ishtirok etishi mumkin): *beshta daftar, bugun keldi, o'zining uyi, shaharda yashaydi, akasi haqida so'radi*. Ajralmas birikmalar,

iboralar qatnashgan birikmalar ham sodda soʻz birikmasi hisoblanadi: *qilich uyini ot, borsa kelmas oroli*.

2. Murakkab birikma tarkibida uchta va undan ortiq mustaqil soʻz qatnashib, shaklan kamida ikkita soʻz birikmasidan iborat boʻladi, mazmuni esa bu soʻz birikmalarini ajratib boʻlmaydi: *gʻayratli yosh bolalar, yangi ommabop kitob, katta qora qoʻy, asfalt yotqizilgan keng koʻchalar, katta mevali daraxt, bugun kelgan ishchilar*. Bunda sodda soʻz birikmasi kengayadi. Soʻz narsa, belgi, shaxs, ish harakatni umuman ifodalash uchun xizmat qiladi: Kitob deganda umuman kitoblarni, bordi deganda umumun borilganlikni tushunamiz. Soʻz birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan soʻzga oʻxshab ketadi, ammo soʻz birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatlardan ajratib, aniqroq qilib ifodalaydi: *oʻquvchi – aʻlochi oʻquvchi, yozish – tez yozish*. Sintagma fonetik hodisa boʻlib, unda ikki soʻz oʻzaro birikkanda mazmun etakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil va bitta yordamchi soʻz ham sintagmani tashkil etishi mumkin yoki bir soʻzning oʻzi ham sintagmani tashkil etishi mumkin. Soʻz birikmasi esa eng kamida ikkita mustaqil soʻzdan iborat boʻladi. Gap fikr bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: *Koʻcha katta*. Soʻz birikmasi esa atash ohangi bilan aytiladi: *katta koʻcha*. Shu xususiyati bilan gapdan farq qiladi. Ergash soʻz bosh soʻz bilan quyidagi usullar yordamida birikadi:

1. BOSHQARUV. Bosh soʻzning talabi ergash soʻzning maʼlum grammatik vositasini olishi boshqaruv deyiladi. Boshqaruvda ergash soʻz bilan birikishi ikki xil boʻladi: 1) ular oʻzaro tushum, joʻnalish oʻrin-payt yoki chiqish kelishigi qoʻshimchasi yordamida birikadi (kelishikli boshqaruv): *Ilgʻorlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash, qishloqdan kelish*. 2) ular oʻzaro koʻmakchilar yordamida birikadi (koʻmakchili boshqaruv): *Sayr haqida suhbat, paxta uchun kurash, sayohat toʻgʻrisida gapirish*. Ayrim hollarda grammatik vosita boʻlmasligi ham mumkin: *Olma terish, shahar borish*. Boshqaruvda tobe soʻz ot yoki ot oʻrnida qoʻllanadigan soʻzlardan, shuningdek, harakat nomi va sifat doshdan iborat boʻladi. Bosh soʻz vazifasida esa koʻpincha feʼl qoʻllanadi. Baʼzan bu vazifada ot, sifat, ravish va boshqa soʻzlar ham qoʻllanishi mumkin. Boshqaruvda koʻpincha

ergash soʻz avval, bosh soʻz keyin keladi, sheʼriy asralarda qofiya talabi bilan bosh soʻz oldin, ergash soʻz keyin kelishi mumkin.

2. MOSLASHUV bosh soʻz bilan ergash soʻzning shaxs – sonda mosligidir. Bunda bosh va ergash soʻz qaratqich kelishigi hamda egalik qoʻshimchasi yordamida birikadi: qaratqich kelishigi qoʻshimchasi ergash soʻzga, egalik qoʻshimchasi bosh soʻzga (baʼzan har ikkalasiga ham) qoʻshiladi: *ukamning kitobi*. Ega va kesim ham moslashuvda boʻladi. Moslashuvda odatda ergash soʻz avval, bosh soʻz keyin keladi. Baʼzan sheʼriy asarlarda bosh soʻz oldin, ergash soʻz keyin keladi: *Ey muqaddas gul diyorum, gulshanim jonim mening, Men sening bagʻringda oʻsdim, yoʻqdir armonim mening*. Moslashuvda baʼzan qaratqich kelishigi yoki egalik qoʻshimchasi tushirilishi mumkin: *maktab hovlisi, bizning maktab kabi*. Moslashuv usuli bilan shakllangan birikmalar asosan otli birikmalar hisoblanadi, chunki ot bilan ot qaratqich kelishigi yordamida bogʻlanishi mumkin. Nutqimizda uchraydigan *aʼzoi badan, oynai jahon* kabi fors-tojik tilidan kirgan birikmalar bir soʻz sifatida qoʻllanaveradi.

3. BITISHUV. Ergash soʻzning bosh soʻz bilan grammatik vositasiz, faqat maʼno jihatdan yoki soʻz tartibi yordamida birikishi bitishuv deyiladi. Bitishuvda doimo ergash soʻz avval, bosh soʻz keyin keladi: *tiniq suv, katta koʻcha*. Ularning oʻrni oʻzgartirilsa, gap hosil boʻladi: *Suv tiniq. Koʻcha katta*. Bitishuvda ergash soʻz vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa soʻzlar keladi: *qizil gul, tez yurmoq, tilla bilaguzuk, bunday odam, oʻqigan odam, joʻshib kuylamoq*. Bosh soʻz ot va feʼl turkumidan iborat boʻladi. *Birga oʻqish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolgʻondan gapirmoq* kabi birikmalar oʻrinpayt, joʻnalish, chiqish kelishigi qoʻshimchalari, koʻmakchilar bilan bogʻlangan boʻlishiga qaramay, boshqaruv emas, balki bitishuv sanaladi. *Devor soat, uy vazifa, ot toʻrva, non zavod* kabi xoslik, mansublik munosabatini bildiradigan birikmalar ham bitishuv munosabatiga misol boʻladi⁹.

⁹ Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. (Sintaksis). –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. –B. 228.

Tilda leksik (soʻz), sintaktik (soʻz birikmasi va gap) va bogʻlanishli nutq saviyalari ajratiladi. Shu mazmunda soʻz birikmasiga leksik saviyadan sintaktik saviyaga oʻtish halqasi sifatida qaraladi. Soʻz birikmasi leksik-grammatik birlik boʻlib, tugallangan fikr ifodalamaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. Soʻz birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi. Bolalarga soʻz birikmasini oʻrgatish fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi. Boshlangʻich sinflarda soʻz birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi:


1. *Bosh soʻzdan ergash soʻzga soʻroq berish, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini aniqlash.* Masalan, *Anvarjon yaxshi oʻqiydi. Kim (oʻqiydi)?*

— *Anvarjon. (Anvarjon) nima qiladi? — oʻqiydi. Qanday (oʻqiydi)? — yaxshi. Yaxshi oʻqiydi — soʻz birikmasi.*

1. *Gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini chizmada koʻrsatish.*

Bu oʻquvchilarni asta-sekin murakkab qurilmalarni tuzishga oʻrgatadi.

Masalan:



Terimchi paxtani mashinada terdi. Gulzorda har xil gullar ochildi.

3. *Matnda uchragan soʻz birikmasining maʼnosini tushuntirish.*

4. *Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi soʻz bilan soʻz birikmasi tuzish.* Mashqning bu turi soʻzning maʼnosini chuqur tushunishga va undan oʻz nutqida foydalanishga yordam beradi.

5. *Soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻz birikmasi tuzdirish.* Ot soʻz turkumi oʻtilganda, ot va sifat bilan (*jonajon Vatanim*), ot va boshqa ot bilan (*maktab bogʻi*) feʼl oʻtilganda, ot va feʼl bilan (*kinoga bordi, maktabda boʻldi, uydan keldi, kitobni oʻqidi*) soʻz birikmalari tuzdiriladi.

Soʻz birikmasi tuzishda yoʻl qoʻyilgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi, shuning uchun uning oldini olish kerak.

Masalan:

Oʻquvchi nutqida uchraydi:

maktabga boʻldim

Toʻgʻrisi:

maktabda boʻldim

Bolalar ko'proq xatoga yo'l qo'yadigan so'z birikmalarini yig'ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So'z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to'g'ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birikmasi ustida o'rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog'lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o'tish lozim.

1.2. Sodda gap sintaksisi

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Maktab o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap — grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap nutq va til birligi bo'lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida ishlash ham zarur; to'rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning inazmun bilan bog'liqligini tushuntirish kerak.

Gap tugallangan fikr ifodasidir, uning mazmun tomonidir, lekin bu fikriy tugallik nisbiydir, chunki ayrim gapdagi fikrning to'liq ochilishi nutq ichida bo'ladi. Demak, gap formal-grammatik va intonatsion jihatlardan ham, mundarija jihatdan ham tugallikka ega. Biroq uning fikriy tugalligi – nisbiy. Gap nutq ichida yashaydi. Nutqda uning mazmuni boshqa gaplar bilan munosabatda bo'lish orqali yana ham oydinlashadi. Gap bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan tashkil topadi.

Bir soʻzning gap boʻlib kelishi maxsus intonatsiya tufaylidir. Bunda predikativlik intonatsiya orqali ifodalanadi: *Bahor. Hamma yoq koʻm-koʻk.*

Gap soʻzlar bogʻlanmasidan iborat boʻlganda, uning boʻlaklari maʼlum grammatik qonun-qoidalar asosida sintaktik aloqaga kiradi. Bu tip gaplarda predikativlik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal soʻzlar bilan ifodalanadi: *Qirdan gʻir-gʻir shabada esadi.*

Yuqoridagi belgilar asosida gapga quyidagicha taʼrif berish mumkin: Grammatik shakllangan, intonatsion va fikriy tugallikka ega boʻlgan, fikrni shakllantirish, ifodalash va bildirish vositasi boʻlgan soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasidan tashkil topgan eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Gaplarning tuzilishiga koʻra turlarini belgilashda quyidagilar asos qilib olinadi:

Grammatik asos, predikativ markazning miqdori.

Gaplarning grammatik asos, predikativ markazning miqdoriga koʻra turlarini belgilashda oddiy gaplarning grammatik asosi, struktura asosi, predikativ markazi, yadrosi tushunchalarini bilib olish lozim. Bu terminlar har qanday gapning tuzilishida asosiy rol oʻynovchi boʻlaklar yoki boʻlak maʼnosini bildiradi. Bu boʻlaklarsiz gap shakllanmaydi, predikativ munosabat yuzaga kelmaydi, fikr ifodalanmaydi. Shuning uchun uni baʼzilar grammatik asos, predikativ markaz, yana baʼzilar predikativ yadro deydi. Nima deyilishidan qatʼi nazar, soʻzni oʻzak morfemasiz tasavvur qilib boʻlmaganidek, gapni ham mazkur boʻlaklarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi.

Gapda bunday vazifani ega va kesim munosabati yoki kesimning oʻzi yoki kesim sostavi bajaradi. *Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Yangisini qurmay, eskisini buzmay. Shovqin qilmang. Etti oʻlchab, bir kes.*

Demak, gapning grammatik asosi, predikativ markazi ega va kesim munosabatidan tashkil topgan predikativ qurilma yoki kesim sostavi yoki kesimning oʻzidan tashkil topgan predikativ birlikdan iborat.

Predikativ markazning tarkibiga yoki bosh boʻlaklarning miqdoriga koʻra sodda gaplar ikkiga boʻlinadi: 1. Ikki bosh boʻlakli gap. 2. Bir bosh boʻlakli gap.

Egasi ham, kesimi ham mavjud bo‘lgan sodda gaplar ikki bosh bo‘lakli gap sanaladi. Bunda bosh bo‘laklardan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklar qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Masalan: *Onamiz norozi bo‘ldi. Uyqum qochdi! Dumli hayvonni odamga el qilish barchaning-da qo‘lidan kelmaydi.*

Predikativ yadrosi bitta bo‘lgan sodda gaplar bir bosh bo‘lakli sodda gaplardir. Bunda bosh bo‘lak yolg‘iz o‘zi yoki ikkinchi darajali bo‘laklar bilan birgalikda predikativ yadroni tashkil etgan bo‘lishi mumkin. Demak, bu erda predikativ yadroning tarkibi yoyiq yoki yig‘iq holdagi bir bosh bo‘lakdan iborat bo‘ladi. O‘zbek tilida bosh bo‘lagi kesim bilan ifodalangan bir bosh bo‘lakli gaplar ko‘pchilikni tashkil qiladi. *Kitobida bir joyi yoqimsiz bo‘lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o‘chiradi, yoqimli qiladi. To‘rt tuyoqldi jonivorni ot qilish uchun, avvalambor, ko‘ngilda bo‘lmog‘i lozim! Uy bekasi qozon osdi. Palovga urindi.– Odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi. Ziyodulla chavandoz!* tipidagi bir bosh bo‘lakli gaplarning qo‘llanishini inkor qilmaydi. Bu xil gaplarda predikativlik ega shaklidagi so‘zlarni tugallangan intonatsiya bilan aytish va undan keyin boshqa gaplar kelishi orqali ifodalanadi. Shuning uchun uni eganing aynan o‘ziga tenglashtirib bo‘lmaydi. Bu so‘zlar yoki birikmalar bir vaqtning o‘zida ham ega, ham kesim vazifasini o‘taydi.

Bir bosh bo‘lakli gaplarni *Sen kelding - boshlayveramiz: Kecha bordim, yo‘qsan* kabi qo‘shma gaplardan, shuningdek, *Xo‘p. Mayli. Barakalla. Ofarin.* shakllaridagi so‘z-gaplardan va dialoglarda ishlatiladigan gaplardan (qachon kelding - kecha kabi) *Ona.* Naqadar ulug‘ so‘z kabi sintaktik qurilmalardan farqlash kerak. Birinchi holda gap qo‘shma gap, ikkinchi holda so‘z-gap, uchinchi holda to‘liqsiz gap, turtinchi holda esa tasavvur nomi to‘g‘risida ketyapti. Chunki *Sen kelding – boshlayveramiz.* gapida ikkinchi komponent kesimdan tashkil topgan bir bosh bo‘lakli gapdir, binobarin, u qo‘shma gapdir. *Xo‘p. Mayli. Barakalla. Ofarin.* So‘z-gaplari esa oldin aytib o‘tilgan fikrga ekspressiv modal munosabatlarni ifodalaydi va bo‘laklarga ajralmasligi bilan xarakterlanadi. To‘liqsiz gaplarning yashiringan bo‘laklari mavjud bo‘ladi. Bir bosh bo‘lakli gaplarda esa biron bo‘lak yashirinib qolmaydi, ular fikrning ana shunday shakldagi

ifodasidir. Soʻnggi holatda tushuncha nomi (Ona) alohida taʼkidlangan, maʼno kuchaytirilayotir. Bu erda fikr ifodalangayotani yoʻq. Fikr taʼkidlangan soʻzdan keyin kelayotgan sintaktik qoʻshilma orqali ifodalanadi. Bu bir fikr-mazmunni ana shunday boʻlaklab ifodalashdir.

Maʼlumki, kishi nutqining intonatsion butunlikdagi, grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy tugal bir fikrni bildiradigan soʻzlar bogʻlanmasi yoki alohida bir soʻz shaklidagi parchasi gap sanaladi. Gap yolgʻiz muhokamani, hukmni bildirmasdan istak, buyruq, soʻroq kabi maʼnolarni ham ifodalab keladi. Shu bilan birga, gap orqali ichki tuygʻularimiz, hayajonlarimiz ham ifodalanadi. Demak, gap hukmning til materiallari bilan ifodalangan shakli, qobigʻidir. Hukm gapsiz mavjud boʻlmaydi. Lekin gapda hukmdan tashqari fikrning boshqa turlari (buyruq, soʻroq va b.k) ham ifodalanishi mumkin. Shuningdek, gap soʻzlovchining dunyoga, voqelikka va fikrga boʻlgan munosabatini ham bildiradi. Demak, gap shakl va mazmunga ega birlikdir. Bundan ayon boʻladiki, gap semantik-sintaktik butunlikdir. Semantik-sintaktik butunlik boʻlgan gaplarning aksariyati bir necha qismlardan iborat. Chunki gaplarning koʻpchiligi odatda soʻzlar bogʻlanmasidan tashkil topgan boʻladi. Gap semantik-sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini semantik-sintaktik boʻlaklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 semantik-sintaktik boʻlakdan iborat boʻladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap boʻlaklari boʻlsa, 3 tasi odatdagi gap boʻlaklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan boʻlaklardir. Bular, maʼlumki, undalma, kirish va kiritma deb ataladi.

Demak, semantik-sintaktik boʻlak gap boʻlaklaridan kengroq tushunchaga ega boʻlib, gapni toʻliq qamraydi. Shu maʼnoda semantik-sintaktik boʻlak gapning oʻziga xos maʼno-vazifa va shaklga ega boʻlgan qismidir.

Bu holda semantik-sintaktik boʻlak ikkiga boʻlinadi:

1. Oʻzaro sintaktik aloqaga kirishadigan semantik-sintaktik boʻlaklar.
2. Bevosita sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik-sintaktik boʻlaklar.

Oʻzaro sintaktik aloqaga kirishadigan boʻlaklar shu choqqacha gap boʻlaklari doirasida oʻrganilgan semantik-sintaktik boʻlaklardir. Bular gapning predikativlik

ifodalovchi qismini shakllantiruvchi bo‘laklar ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun gap bo‘laklari nisbatan gaplarning doimiy, zaruriy bo‘laklari hisoblanadi.

Ishni olib borish jarayonida biz sintaksis bo‘yicha qilingan ishlarni ko‘rib-chiqib, badiiy matndan aynan gap bo‘laklarini qanday ajrata olish, ularning o‘rnini aniqlash kabilarga o‘z e‘tiborimizni qaratdik. Bosh bo‘laklar, ya‘ni ega bilan kesimning qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklarni, ularning ifodalanishi, ularning shakliy-morfologik tuzilishi, mazmuniy qurilishi, va bosh bo‘laklarning gapda kelish o‘rni kabilarni asar vositasida o‘rganib chiqishga harakat qildik.

1.2. Qo‘shma gap sintaksisi

Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap qo‘shma gap deyiladi: Eshik sekin ochildi-yu, Qalandarovning yuzi ko‘rindi. Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim birligi ishtirok etsa, qo‘shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim birligi qatnashadi. Maktabda qo‘shma gap sintaksisini o‘qitish ham juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va ta‘limiy ahamiyatga molik masala sanaladi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy tomoni shundaki, tilning mazkur bo‘limini o‘rganishda o‘quvchilarning umumiy taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatib, o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda takomillashtirib boradi. Zero, nutqiy malakalarni takomillashtirmay turib, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi bo‘lish sira mumkin emas. Masalaga iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, oldingi amaldagi dasturlarda qo‘shma gap sintaksisini o‘qitish 9-sinflar uchun ajratilgan 68 soatlik dars mashg‘ulotining 38 soatini tashkil etib, undan olinayotgan iqtisodiy foyda sarflanayotgan mehnat bilan sira muvofiq kelmas edi. Natijada o‘quvchilar amaldagi dastur talablariga ko‘ra qo‘shma gaplarni 11 turga ajratib o‘rganishdi. Shubhasiz, buni o‘rganishga anchagina mablag‘ sarflanishi tabiiy holdir. Ammo, bu o‘rganilgan materiallar ularning nutqiy faolyaitiga, ayni bir fikrni turli shakllarda bayon qilish qilish

malakalarini takomillashtirishga etarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmayotgan edi. Qo'shma gap sintaksisini o'rganishga ta'limiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, bu materiallarni o'rganish o'quvchiga qiyinchilik tug'dirayotgan edi. Ular haddan tashkari maydalashtirilgan holad o'rgatilar edi va natijada o'quvchilar qo'shma gaplarning ma'lum bir turini o'rgangunga qadar olin o'rgangan turini xotiradan chiqarib yuborishar edi. Bu, o'z navbatida, ona tili ta'limini o'ta qiyinlashtirib, uning o'zalshtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Maktabda qo'shma gap sintaksisini o'rgatish metodlari bo'yicha o'zbek tili o'qitish metodikasida ancha ilmiy va usuliy ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, M.Omilxonova, N.Shukurullayev, M.Sobirova va A.Sayfullayev kabi metodist olimlarining ayni masalaga bag'ishlangan ishlari e'tiborga loyiqdir. Ammo bu ishlarning barchasi 50-yillarda shakllantirilgan ona tili tizimi talabi darajasidagi bo'lib kelgan. O'zbek tili o'qitish metodikasida qo'shma gap sintaksisini yangicha talqinda o'tish metodlari bo'yicha biz faqat **I.Toshevning "Umumta'lim maktablarida qo'shma gapning yangicha talqini" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya** ishini va bir nechta metodik qo'llanmalarini ta'kidlay olamiz, xolos. "Ta'limning maqsadi" va "ta'limning natijasi" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, keyingisi oldingisining to'g'ri belgilanganligiga bog'liq. Noto'g'ri belgilangan maqsaddan samarali natija kutib bo'lmaydi. Aksincha, maqsad to'g'ri bo'lsa, natija ham samarlidir. Qo'shma gap sintaksisini o'rganishning maqsad va vazifalarini belgilar maktabda ona tili ta'limining maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Ona tili o'qitish konsepsiyasida ona tili ta'limining asosiy maqsadi: "Ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish", - deb belgilangan.

Modomiki, ijodiy fikrlash va fikr mahsulini o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish oldimizda turgan bosh masalalardan biri ekan, deak, qo'shma gap sintaksisi ham ana shu maqsadga xizmat qiladi O'quvchilar qo'shma gapni o'rganr ekan, eng

soʻnggi natija qoʻshma gaplardan nutq sharoitiga mos ravishda toʻgʻri va oʻrinli foydalanish koʻnikma va malakalariga ega boʻlmogʻi lozim.

40-yillardan boshlab, aniqrogʻi, A.K.Borovkov, A.Gʻulomovlar rahbarligida yozilgan “Oʻzbek tili grammatikasi” I qism (Toshkent-1943), “Oʻzbek tili grammatikasi” II qism (Toshkent-1944), darsliklari eʼlon qilinib, ommalashgandan beri hozirgi kungacha toʻliqsiz oʻrta maktabning yuqori sinflarida (1969-yilgacha 7-sinfda, hozirgacha 8-9-sinflarda) oʻzbek tili sintaksisni oʻrganish taʼlimining asosiy mazmunini tashkil etib keldi. Shundan 9-sinfda 1990-yillardan beri oʻrta hisobda 36-40 soat, bevosita qoʻshma gap sintaksisni oʻqitishga sarflandi. Demak, deyarli 30-yillardan beri toʻliqsiz oʻrta umumtaʼlim yuqori sinf oʻquvchilari qoʻshma gap sintaksisidan nimani oʻrgandi? Hozirgi taʼlim nazariyasida uning amaliy ahamiyati faqat bitta boʻlib. U ham boʻlsa tinish belgilarini toʻgʻri ishlatish koʻnikmalarni mustahkamlashdir. Rejalashtirilgan 38 soatlik mashgʻulotlar boshqa amaliy ishlarni nazarda tutmaydi va tuta olmaydi. Maktabni tugatgan qaysi soʻzlovchi biror matn yaratish ustida ishlar ekan, yaʼni tildan amaliy jihatdan foydalanar ekan, ergash gapli qoʻshma gapning u nuqta qoʻshma gap turi aniqlovchi ergash gapmi, payt ergash gap ekanligi haqida oʻylab turadi yoki tinish belgilaridan foydalanish jarayonida ergash gapli qoʻshma gaplarning turlarini ajratish ustida fikr yuritadi.

Ergash gapning maktabda oʻrganladigan 11 turini mutloqo xotiradan chiqargan holatda ham oʻquvchilar hayotiy ehtiyojlarini bemalol qondira oladilar. Oʻz-oʻzidan savol tugʻiladi: Qoʻshma gap qurilishini oʻrganishga bagʻishlangan 38 soatlik mashgʻulot nima berdi? Shu mashgʻulotni oʻtkazishga har bir oʻquv yilida qancha mablagʻ sarflanganini taxminan hisoblab koʻradigan boʻlsak, bunga oʻqituvchining ish haqqi, darslik va boshqa xildagi xarajatlar qoʻshilsa, qoʻshma gapning amalda foydalanib boʻlmaydigan bugungi talqinini oʻrganish uchun Oʻzbekiston bir oʻquv yilida qanchadan qancha mablagʻ sarflaydi. Samara esa kutilgandek emas. Mana shuning uchun 1980-90-yillarda ona tilidan taʼlim mazmuni va usulini yangilash muammosi eng dolzarb muammo sifatida oʻrtaga qoʻyildi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I chaqiriq 9-sessiyasida

birinchi prezidentimiz I.A.Karimov nutqida esa bu masala bugun jiddiyligi bilan xalq va hukumat oldiga qo'yildi. Bugun ta'lim oldida turgan eng dolzarb masalalar qachon, nimani, qanday va qaysi maqsadda o'quvchilarga o'rgatishdan iboratdir. Shuning uchun o'rta maktablarning yuqori sinflarida o'rganiladigan qo'shma gap mavzusi ham amaliy samarani ko'zlagan holda tubdan yangilanishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. Muammo yechimini esa tilshunoslik fanining keyingi davrda qo'lga kiritgan yutuqlari berishi mumkin. O'zbek tilshunosligida sistemaviy talqin usullarining rivojlanishi tilning barcha sohalari kabi qo'shma gap talqiniga ham yangicha yondashishni shakllantirdi. Jumladan, iste'dodli olim R.R.Sayfullayeva o'zbek tilida qo'shma gaplarning struktur umumiy lisoniy qolipini va shu asosda qo'shma gaplarning umumiy qolipini, uning oraliq ko'rinishlarini, nutqda voqealanish shakllarini umumlashtirib, o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal struktur talqinini ishlab chiqdi¹⁰. Olimaning amaliy tatbiqqa ahamiyatli bo'lgan xulosasi shundan iboratki, qo'shma gapning shakllanishida eng muhim omil qo'shma gap tarkibida birlashuvchi sodda gaplarning o'zaro ma'naviy aloqalari emas, balki ularni birlashtiruvchi vositadir. Demak, o'quvchilarga ham qo'shma gap ta'limida shu mantiqiy grammatik bog'lanishni ta'minlovchi vositalarni o'rgatishga alohida e'tibor bermoq lozim. Bunday vositalar esa o'zbek tilida rang-barang bo'lib, o'z navbatida katta paradigmatic qatorni tashkil qiladi. Tinish belgilarining qo'llanilishi xususiyatiga ko'ra mantiqiy grammatik bog'lanishni ta'minlovchi vositalarni 1) ohang, 2) yuklama. 3) teng bog'lovchilar, 4) ergashtiruvchi bog'lovchilar, 5) nisbiy so'zlar kabi 5 guruhga ajratish mumkin. O'rta maktabda qo'shma gap talqinini o'rganishni shu yo'nalishda o'zgartirishni hozirgi o'zbek tilshunosligi yutuqlari talab etadi.

Bu talabni esa ta'limning davomiyligi va uzluksizligi taqozo etadi. Zeroki, o'quvchilar 6-7-sinflarda yuqorida sanab o'tilgan 5ta vositalarning har birini ona tili kursining morfologiya bo'limida alohida-alohida lisoniy vositalar sifatida o'rganadilar. Qo'shma gaplar talqinida oldingi sinflarda o'rganilganlarga alohida e'tibor beradi. Qo'shma gap tarkibida birlashuvchi sodda gaplar orasidagi

¹⁰ Сайфуллаева Р.Р. Қўшма гап таснифи ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 1990.№5 22-25

ma'noviy aloqalarni. Jumladan, ergash gapning payt yoki shart ergash gap ekanligi, ega yoki to'ldiruvchi gap ekanligini o'quvchilarga o'rgatishga zarurat bormi? Bunga zarurat bo'lmasa kerak. Chunki qo'shma gap tarkibidagi ma'noviy munosabatlar grammatik qurilish bilan emas. balki, nutq sharoiti bilan belgilanadi.

Chunonchi,

“O'qituvchi keldi, dars boshlandi”;

“O'qituvchi keldi va dars boshlandi”;

“O'qituvchi keldi-yu dars boshlandi”;

“O'qituvchi keldi hamki: dars boshlandi”;

“O'qituvchi kelib, dars boshlandi”;

“O'qituvchi keliboq, dars boshlandi” kabi gaplarning barchasida komponentlar payt yoki shart ergash gap sifatida bog'lanishi mumkin. Lekin har bir turdagi bog'lovchi o'ziga hos xususiy ma'noga egaki, u payt yoki shart munosabatlari bilan mutloq aloqador emas. Chunonchi, “O'qituvchi keldi, dars boshlandi” neytral, birin-ketinlik, “o'qituvchi keldi va dars boshlandi” da esa bu birin-ketinlik “va” bog'lovchisi vositasida ta'kidlangan. “O'qituvchi keldi-yu, dars boshlandi”, “o'qituvchi keliboq dars boshlandi”, “O'qituvchi kelib dars boshlandi” shakllarida birinketinlik, uzilmaganlik kabi ma'nolar bo'rttiriladi. Bu bo'rttirish bog'lovchi vositalar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tinish belgilarining qo'llanilishi qanday vositalar bilan ishlatilishiga bog'liq. Shuning uchun ham ayta olamizki, o'rta maktabda qo'shma gapni bog'lovchi vositalar orqali o'rgansak ham, tinish belgilarining qo'llanilishi hamda turli xil bog'lash vositalarining o'ziga xos ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari o'quvchilar ongiga yetkazilgan bo'ladi.

II BOB. SINTAKSIS BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

1.1. Sodda gaplarni o‘qitishda til bo‘limlari bilan bog‘lab o‘rgatish

An’anaga ko‘ra, sintaktik tahlil deganda, gapni bo‘laklarga ajratish (bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar) tushuniladi. Lekin, gap bo‘laklarini o‘rganishdagi bunday tahlil usuli elementlar sintaktik birliklar tahlilini qamrab ololmaydi. Zero, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasidagi so‘zlar sintaktik jihatdan bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasidagi so‘zlar sintaktik jihatdan bo‘linadigan hamda bo‘linmaydigan konstruksiyalardan iboratdir. Shunday ekan gapni tahlil qilish metodi an’anaviy sintaktik tahlildan farqli o‘laroq, ikki bosqichda olib borilishini taqozo etadi. Bunda gapdagi elementlar yoki sintaktik birliklar avval komponentlab tahlil qilinib, keyin bu komponentlar u yoki bu sintaktik o‘rinda sintaksemalarga ajratiladi. Bu kabi tahlil tipi avval ham mavjud bo‘lib, uni ko‘pincha ravishdosh, sifatdosh oborotlar deb ajratilib kelingan. Nazariy grammatika (N.Mahmudov, A.Nurmonov) mualliflari esa bunday tipdagi sintaktik bo‘laklarni ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi o‘ramlari atamasi bilan yuritishadi. Bunday tahlil dastlab A.M.Muxin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ko‘pgina olimlar ishlarida keng qo‘llanilgan¹¹.

Gapni komponent tahlil qilishdan asosiy maqsad: gap strukturasiida kelgan sintaktik birliklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani aniqlash va ularni bir-biridan farqlashdir. Biroq an’anaviy nazariy grammatikalarga nazar tashlasak, ayrim tilshunoslar mustaqil gaplarning o‘zaro birikishini bog‘lovchilar orqali bog‘lanish, deb ta’kidlasa, ba’zilari ergash gaplarning bosh gap bilan bog‘lanish usullari deb tushunadi. Tilshunoslarning ko‘pchiligi “sintaktik aloqa” va “sintaktik munosabat” atamalaridan foydalanar ekan, “sintaktik aloqa” deganda, gapdagi sintaktik birliklarning bog‘lovchilar yordamida bog‘lanishini tushunsa, “sintaktik munosabat” deganda so‘z tartibi, so‘z shakllari, ko‘makchi so‘zlar, yuklamalar va ohang kabi vositalar asosidagi birikishni tushunadi.

¹¹ Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Л., 1968.

O‘zbek tilshunosligida ham sintaktik aloqalar masalasida bir qator yechimni topmagan hodisalar uchraydi. Masalan, o‘zbek tili grammatikasida sintaktik aloqaga, gapda so‘zlar va so‘z birikmalarning o‘zaro bog‘lanishni bildirish bilan birga, nutqda gaplarning ma’lum usul va vositalar yordamida bir-birlari bilan bog‘lanishini ham bildiradi, deb izoh beriladi.

Xuddi shu fikr muallifi fikriga qo‘shilgan holda sintaktik aloqa va sintaktik munosabat masalasini farqlash zarur deb hisoblaymiz hamda o‘zbek tilining nazariy grammatikasida berilgan sintaktik aloqa va sintaktik munosabat masalasining N.Mahmudov va A.Nurmonovlar ta’kidlaganlaridek, koordinativ va subordinativ aloqa turlarini, ular tarkibidagi kopulyativ, introduktiv aloqa turlarini ham hozirgi o‘zbek adabiy tili doirasida o‘rganilishini tashkil etish vaqti allaqachon kelgan deb o‘ylaymiz. Sintaktik munosabatlar deyilganda, gaplar orasidagi mantiqiy munosabatlar anglashiladi. Nazarimizda, sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar sinonim tarzda tushunilmasdan balki ular ma’lum darajada farqlanishi lozim. Ya’ni sintaktik aloqa so‘z birikmasi va gapdagi so‘zlarning aniqrog‘i, nutqdagi so‘zlarning bir-biriga nisbatan, qanday grammatik ma’no va funksiyada qo‘llanishini bildiradi. Masalan, *uyga bordim, senga oldim* misollarida sintaktik aloqa bir xil emas, ya’ni *uyga bordim* birikmasida holli munosabat bo‘lsa, *senga oldim* birikmasida obyektli munosabat ifodalangan. Lekin bunday fikrlarning mavjudligi sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlarni aniqlashda tilshunoslik sathlarini bir-biridan farqlamaslikka sabab bo‘ladi. Bu o‘rinda sintaktik munosabatlar so‘z birikmalarida, sintaktik aloqalar esa gap sathida olib qaralgani maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek tilshunosligining eng so‘nggi grammatikalaridan birida sintaktik aloqalar tushunchasi shunday izohlanadi: “Komponentlar orasidagi sintaktik aloqa ikki xil: predikativ va predikativ bo‘lmagan aloqa”. Predikativ aloqa natijasida gap hosil bo‘ladi, predikativ bo‘lmagan aloqa natijasida esa so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. Bu an’anaviy tilshunoslikda mavjud va sintaksisga oid mashg‘ulotlar davomida amalda qo‘llanib kelinmoqda.

Sintaktik munosabat tushunchasi soʻz birikmasi doirasida kuzatilib, atributiv, obyektli va relyativ (holli) munosabatlarga ajratiladi hamda bunday tahlil asosan gap emas, balki soʻz birikmasi tahlili jarayonida ham amal qiladi. Sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlarni bunday farqlash haqiqatga ancha yaqin, deyish mumkin. Ammo baʼzi manbalarda uchraydigan boshqaruv, moslashuv, bitishuv kabilar tilning qaysi sathida oʻrganilishi haqida ham ayrim munozarali fikrlar mavjud. Xususan, ayrim tilshunoslarning fikricha, sintaktik aloqalar ikki yirik turga boʻlinadi: teng va tobe aloqa. Teng aloqa deganda, uyushiq boʻlaklar oʻrtasidagi aloqa tushunilsa, tobe aloqa deganda, sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga boʻysinuvchi aloqa tushuniladi va ular uch xil boʻladi: boshqaruv, moslashuv va bitishuv.

M.Muxin sintaktik aloqalarni aniqlashda til qatlamlarini bir-biridan farqlab, boshqaruv va bitishuvni leksik aloqa, moslashuvni esa morfologik aloqa deb hisoblaydi. Bunda albatta, birikuvda ishtirok etayotgan leksemalarning maʼnoviy birikuvchanlik xarakteri inobatga olingan. Darhaqiqat, gaplarni sintaktik jihatdan tahlil qilganimizda, boshqaruv, bitishuv va moslashuvlarning birortasidan foydalanmaymiz. Chunki gapda boshqaruvning mavjud boʻlishi gapdagi kesim oʻrnida kelgan elementning oʻtimliliigi yoki oʻtimsizligiga bogʻliq. Maʼlumki, oʻtimli elementlar har doim oʻziga obyekt talab qiladi va kesim oʻrnida kelgan element bilan boshqariladi. Bundan anglashiladiki, predikativ markaz (anʼanaviy kesim) sifatida kelayotgan gap boʻlagi alohida olingan narsa emas, balki oʻtimli yoki oʻtimsiz maʼnoda kelayotgan boshqaruvchi markazning bogʻlashuv (atama Sh.Raxmatullayevniki) imkoniyatidir. Faktik materiallarni tahlil qilganimizda, yadro predikativ, subordinativ, oppozitiv, yadro boʻlmagan predikativ, koordinativ kabi aloqalarni uchratish mumkin. Shu boisdan aytish kerakki, jumla tarkibida asosiy predikat bilan bir qatorda ikkinchi darajali predikasiya ham uchrashi mumkin. Ammo bu ikkinchi darajali predikasiya degani “kesim” degani ham emas. Balki u ega, hol, toʻldiruvchi boʻlishi ham mumkin. Ammo ularni birlashtiruvchi asosiy jihat maʼnoviy bogʻlanish imkoniyatidir. Yuqorida aytib oʻtilganidek, komponentlab tahlil qilish metodiga asoslangan holda quyidagilarga eʼtibor

qaratish lozim: 1) gapning boshlang'ich tahlilida gapdagi elementlar o'rtasidagi sintaktik aloqalar aniqlanadi va ular funkcion modellar yordamida izohlanadi; 2) aniqlangan sintaktik aloqalar bazasida har bir elementning differensial sintaktik belgilari aniqlanib, ular komponent modellar yordamida beriladi. Gapning bunday tahlili gap tashqi strukturasi tahlili deb tushuniladi va bu jarayon sintagmatik planda bajariladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, gapning komponent tarkibini va sintaktik aloqalarni to'g'ri aniqlashda tahlilga olingan gap doirasidan chiqmaslikning o'zi etarli. Sintaksemalarni aniqlash ularni turli sistemali tillar bilan qiyoslash hamda boshqa gap elementlari bilan taqqoslashdan iboratdir. Eng muhimi, gap strukturasi komponentlarni ajratish va sintaksemalarni aniqlashda asosan, bir sintaktik aloqa bazasida ish olib boriladi. Gapdagi elementlar sintaktik birliklarni komponentlab va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali: 1) gap strukturasi sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy xususiyatlarini o'rganishga imkoniyat yaratiladi; 2) bu imkoniyat gapning sintaktik va sintaktik-semantik jihatdan tasniflashni asoslaydi; 3) sintaksemalarga ajratib tahlil qilish sintaktik elementlar birliklarining sistem munosabatlarini o'rganishga imkon beradi; 4) lisoniy tahlil metodi yordamida modellashtirish va eksperimentdan foydalanishga imkoniyat yaratiladi; 5) sintaksemalarning sistem munosabatlari, ularning variantlari, modellashtirish va eksperiment metodlari asosida ishlab chiqilgan natijalar kesimni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga keng yo'l ochib beradi-degan edi tilshunoslardan biri¹². Shuning uchun ta'kidlash joizki, gapdagi butunicha bir so'roqqa javob bo'lib ajralmas gap bo'lagi sifatida tahlil etilgan sintaktik birlik tarkibida o'z mazmun mohiyati, boshqacha aytganda valentlik imkoniyatidan kelib chiqib, birlashtiruvchi ikkinchi darajali predikasiya shakllanadi. Ana shu ikkinchi darajali predikasiya bilan an'anadagi hokim-tobelik munosabatiga tayangan holdagi tahlilni, ya'ni tahlilning ikkinchi bosqichini belgilaydi. Bu tahlil jarayonida gapning asosiy kesimi bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan kengaytiruvchi birliklar(leksemalar), ya'ni funksional gap bo'laklari hamda bevosita shu markaz

¹² L.Raupova. O'zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va (WpM-Wpm) qurilishli gaplar. NDA. – T.,1999.

bilan bog‘lanib, asosiy markazga bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan so‘z kengaytiruvchilari farqlanadi. Bu esa gap bo‘laklari tarkibidagi sistemalarni bir-biri bilan bog‘lanishi hisobiga kengayishini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xullas, gapni bunday tahlil qilish, elementlar sintaktik birliklarning funksional vazifalarini to‘liq talqin qilish uchun keng imkoniyatni yuzaga keltiradi.

5-sinfda gap va uning tarkibiga ko‘ra turlarini o‘rganish uchun 6 soat ajratilgan bo‘lib, shundan qariyb 4 soati gap bo‘laklari va uning turlarini o‘rganishga ajratilgan. Albatta, bu mavzu 5-sinf o‘quvchilariga IV chorakda o‘tiladi. Keyinchalik 8-sinfda o‘quvchilar Gap bo‘laklari mavzusi bilan obdon tanishadilar. Jumladan darslikda qoidalar va misollar yetarlicha berilgan: O‘zbek tilida gaplar grammatik asoslarining miqdoriga ko‘ra 2 ga bo‘linadi: Sodda va qo‘shma: *Bu shaharda tanish bilish yo‘qligi Mirzayevga shu bugun bilindi. Kampirning ko‘zlarini allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.*

Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari quyidagilar:

1. *Aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish.* Bunda so‘zlar grammatik materialning o‘rganilishiga qarab uch variantda berilishi mumkin: a) so‘zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: *meva, bog‘da, bog‘bonlar, terdilar (Bog‘bonlar bog‘da meva terdilar);* b) o‘rganilgan grammatik materialni hisobga olib, ayrim so‘zlar bosh shaklda, boshqalari tayyor shaklda beriladi. Masalan, “Otlarda birlik va ko‘plik” mavzusi o‘tilgach, *paxta, dalada, bola, terdilar* shaklida berilishi mumkin; v) barcha so‘zlar bosh shaklda beriladi: *koptok, hovli, bola, o‘ynamoq.*

2. *Nuqtalar qo‘yilmagan, bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish.* Bu mashq bolalarni o‘z nutqlarida gaplarning chegarasini ajratishga, gapni to‘g‘ri o‘qish va yozishga o‘rgatadi.

3. Berilgan sodda gapni soʻroqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi.

Masalan: *Qushlar uchib keldi. Qayerdan uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi. Qayerga uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan oʻz uyalariga uchib keldi.*

4. Berilgan sintaktik chizma asosida gap tuzish.

5. Berilgan gapga oʻxshash, masalan, uyushiq egali yoki kesimli sodda yoyiq gap tuzish. Bunda oʻquvchilarga “*Quyosh yoritadi va isitadi*” kabi gap beriladi, oʻquvchi esa “*Ravshan oʻqidi va ishladi*” kabi gap tuzadi.

6. Ikki-uch sodda gapdan bitta uyushiq boʻlakli sodda gap tuzish. Masalan, “*Bahorda qaldirgʻochlar issiq mamlakatlarga uchib ketadi, “Bahorda laylaklar ham uchib ketadi”* gaplaridan uyushiq boʻlakli “*Bahorda qaldirgʻochlar va laylaklar issiq mamlakatlarga uchib ketadi*” gapi tuziladi.

Ijodiy mashqlarda oʻquvchilar oʻzlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlangʻich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, oʻquvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: “*Quyoshli kunda*”, “*Bizning uy*” yoki “*Quyvon va tipratikan*” kabi.

2. Narsa rasmi yoki sujetli rasm beriladi, oʻquvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta “*tayanch*” soʻz beriladi, oʻquvchilar shu soʻzlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch soʻz sifatida bolalarning faol lugʻatiga aylantirish zarur boʻlgan soʻzlar olinadi.

Kesim birikmalar va iboralar bilan ham ifodalanadi. Kengaygan birikma va iboralar gapda yaxlit xolda bitta gap boʻlagi boʻlib keladi va oʻz ichida boshqa boʻlaklarga ajratilmaydi: Vazifamiz – bilim maskanlarida hamisha aʼlo oʻqish. Tarixni oʻrganishdan asosiy maqsad – milliy oʻzligimizni chuqurroq anglash.

Baquvvat xotiraning mohiyati – unutmazlik. Komil insonlardagi olijanob xislat – oʻtmishni unutmazlik.

Ega va kesim gapning grammatik asosidir. Gapni gap boʻlaklariga ajratishda bir necha usullardan foydalaniladi. Ulardan koʻp qoʻllaniladigani gap tarkibidagi soʻzlarga soʻroq berishdir. Ammo bu usul har doim ham oʻzini oqlamaydi. Chunki

gapda so‘roqqa javob bo‘la oladigan, ammo gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan bo‘laklar – undalmalar ham ishtirok etadi. Masalan: *Bolalar, ilm olish – yuksalishdir.* Gapida bolalar so‘zi so‘roqqa javob bo‘lsada lekin gap bo‘lagi vazifasida kelmagan. Shuningdek gapni gap bo‘laklariga ajratishda ularning grammatik shakliga ham e‘tibor beriladi. Ammo bu usul ham to‘liq o‘zini oqlamaydi. Masalan, qaratqich kelishigidagi so‘z qaratqichli aniqlovchi vazifasinibajarishi mumkin, ammo jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigidagi so‘zlar to‘ldiruvchi ham, hol ham bo‘lishi mumkin: *Paxtani zavq bilan terdim – paxtani mashina bilan terdim. Sen nimaga kechikding – suvni nimaga quymoqchisan.*

Ba‘zan gap bo‘laklarini belgilashda uning qaysi so‘z turkumiga taalluqli ekanligi ham e‘tiborga olinadi. Lekin bu usul ham to‘liq asos bo‘la olmaydi. Chunki biror bo‘lak aynan bir so‘z turkumi bilan har doim ham ifodalanavermaydi. Shuning uchun gapni gap bo‘laklariga ajratishda tobe aloqa asosiy vositadir.

Ega quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi:

Yo‘lchi o‘rnidan turdi.

Mard maydondda bilinar.

To‘qqiz uchga kasrsiz bo‘linadi.

Men mnstitutda o‘qiyman.

Tirishgan tog‘dan oshar.

So‘zlagandan so‘zlamagan yaxshiroq.

Taraq-turuq o‘zgarishsiz davom etadi.

Uzoqdan yosh bolaning dod-voyi eshitildi.

Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirish sizga yarashmaydi.

“Edi” – to‘liqsiz fe‘l.

“A” – unli tovush.

Ehtiyot bo‘ling, tag‘in ketidan “lekin”i chiqib qolmasin.

Masalan: 1. *Korxonada ilg‘orlariga mukofotlar topshirildi.* 2. *Sport zalida bolalar badantarbiya bilan shug‘ullanadilar.* 3. *O‘tkazilgan sayr sizda qanday*

taassurot qoldirdi? 4. Sinfingizda kimlar o'qish va intizomda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lmoqda? 5. *Bolalar, gullarni parvarish qilib chiqing.* 6. O'quvchilar uzrsiz dars qoldirmang.

Biz gap yordamida biror narsa haqida xabar beramiz, so'raymiz, iltimos qilamiz, buyuramiz, o'zimizning fikrimizni, tuyg'umizni, istagimizni boshqalarga bildiramiz.

Gap tugallangan fikr, mazmun bildiradi, anglatgan mazmuniga mos ohang bilan o'qiladi (aytiladi).

Gapda so'zlar bir-biri bilan grammatik bog'lanadi. Gapning asosini bosh bo'laklar – ega va kesim tashkil qiladi.

Berilgan so'zlarni bir-biri bilan bog'lab gap tuzing:

1. *Biz, topshiriqlar, o'z vaqtida, bajaramiz.*
2. *Shaharlar, ko'p, qavatli, binolar, qurilmoqda.*
3. *Biz, jonajon, Vatan, gullab-yashnatmoqda.*
4. *Biz, o'qish, uchun, qulay, sharoit, yaratilgan*

Albatta, 8-sinf o'quvchilari uchun taqdim etilgan qoidalar va mashqlar Gap bo'laklari mavzusini to'liq va puxta o'zlashtirish uchun yetarli.

VIII sinf ona tili darsligida Gap bo'laklari sintaksisi mavzulari uchun jami 20 soat ajratilgan bo'lib mavzular quyidagilar:

- I. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.
- II. Gapning bo'laklarga ajratilishi.
- III. Kesim va uning ifodalanishi.
- IV. Fe'l kesim va ot kesim.
- V. Sodda kesim vamorakkab kesim.
- VI. Murakkab ot kesimlarning tuzilishi.
- VII. Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi.
- VIII. Ot kesim va ega orasida tirening qo'llanishi.
- IX. Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari.
- X. Ega va uning ifodalanishi.
- XI. Egali va egasiz gaplar.

- XII. Egasi yashiringan gaplar.
- XIII. Egasiz gaplar.
- XIV. Shaxsi noma'lum gap.
- XV. Atov gaplar.
- XVI. So'z-gaplar.
- XVII. Yoyiq atov va so'z-gaplar.
- XVIII. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar.

Gap bo'laklari sintaksisi mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijobiy natija beradi. Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun "Aqliy hujum", "Zakovat", "Modul dars", "Zigzag", "Interfaol", "O'yin dars", "Munozarali-bahsli dars", "Sayohat dars", "Musobaqa dars" kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, ilojini boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Shuning uchun ham mavzuning murakkabligini hisobga olgan holda darsni o'yin shaklida tashkil etish ma'qulroq deb o'ylayman. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

L.S.Vigotskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi¹³. A.N.Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi¹⁴. Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik
- kommunikativlik
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- davolovchilik
- tashxis
- millatlararo muloqat
- ijtimoiylashuv

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlari ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan¹⁵. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlarga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi. O'yin ijodiyliги bilan ajralib turadi U mumkin qadar boy, faol xarakterga – "ijod maydoni"ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik hosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z

¹³Выготский Л. С. Проблема обучения и умственного развития в школьном возрасте. – Москва, 1996.

¹⁴ Леонтьев А.Н. Очерк развития психики. – Л., 1947.

¹⁵ Шмаков С. Игры в слова и со словами. – Москва: Астрель, 2000.

imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinli faoliyatni motivasiyalash o'yin xarakterining musobalaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta'biricha) quyidagilarni o'zishga qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari:
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rni qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun)-ijro sohasi

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'lini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil sifatida foydalaniladi¹⁶.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o'xshashini topish, faraz xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivasiyalashni rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqatga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar"ni tashkil etadi.

¹⁶ Селевко Г. К. Энциклопедия образовательных технологий. – Москва, 2008.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan. Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Demak, gap bo'laklari mavzusini o'rgatishda o'yin metodlarining istalganlaridan foydalanish mumkin ekan.

1.2. 8-sinfda sintaksisni o'rganishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar

O'rta maktabda ona tili mashg'ulotlari oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri fikrni ixcham shaklda ifodalashga o'rgatishdan iborat. O'quvchi gap qurilishida ortiqcha so'zni ishlatmasligi, maqsadni aniq ifodalovchi so'zni topib qo'llashga odatlanishi, gap tuzishda zarur bo'lgan barcha grammatik qonuniyatlarni egallashlari shart. Bu haqida me'yoriy hujjatlarda va DTS da aniq ko'rsatilgan.

Fikrni ixcham bayon qilish uchun o'zbek tili imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish zarur. O'quvchilarni berilgan gaplardan mazmunga salbiy ta'sir etmaydigan ma'lum bir so'zni tushirib qoldirishga o'rgatish gapni ixcham shaklda tuzishga odatlantirishining eng muhim omillaridan biridir. Masalan: *Mehmonga kelgan odamlarga juda katta hurmat-e'zoz bildiriladi. – Mehmonlarga juda katta hurmat- e'zoz bildirildi. Men uyda o'tiribman – Men uydaman. Birlashgan odam yovni qaytarar- birlashgan yovni qaytarar* kabi.

Ba'zan gapda ayrim so'zlarni takror qo'llash ham fikr ta'sirligini oshiradi. Masalan: *Yaxshi niyat- yorti davlat, yomon niyat-yorti mehnat* (maqol). *Oq it, qora it - bari bir it* (maqol) kabi. Demak, o'quvchilarga zarur o'rinlarda so'zlarni takroriy qo'llashga o'rgatish, xalq maqol-matallaridan foydalanishga o'rgatish ham ularning nutqini boyitishga, ixchamlik sari yetaklashga yordam beradi.

Gapni kengaytirish va toraytirish. O'quvchilarga gap va uning bo'laklari mavzusini o'tish jarayonida yig'iq va yoyiq gaplar tuzishga o'rgatish mumkin. Masalan ixcham gaplarni kengaytirish yoki yoyiq gaplarni toraytirish usullaridan foydalanamiz. Gapni kengaytirishning eng qulay usullaridan biri kesimdan savol berish orqali uning egasini yoki ikkinchi darajali bo'laklarini topib qo'yishdir. Jumladan, *Boraman, kelishdi, ko'rganmisiz?* kabi bir bosh bo'lakli gaplar berib, o'quvchilardan avval ularni ikki bosh bo'lakli gaplarga aylantirish (Men boraman, Ular kelishdi. Siz ko'rganmisiz? kabi gaplar tuzishga odatlantirish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki o'quvchilar mustaqil fikrlashga, erkin gap tuzishga

o'rganadilar. Shuningdek, sodda yig'iq, ixcham gaplarni kengaytirishga odatlanadilar. Dastlab gap bo'laklaridan bir-biriga savol berish, ixcham fikrni kengaytirish mumkin. Masalan: Qushlar qayerga uchishdi? – Qushlar issiq o'lkalarga uchishdi. – Qushlar qachon issiq o'lkalarga uchishdi? Qushlar kuzda issiq o'lkalarga uchishdi, kabi . Aksincha, ayrim hollarda sodda yoyiq gaplarni sodda yig'q gaplarga aylantirish usuli ham fikrni ixchamlashtirishga, aniqlikka olib keladi.

Mustaqil ishning bu turidan 5-9 sinflarda keng foydalanish mumkin. Ayniqsa, sintaksisning izchil kursini o'rganish jarayonida 8-9 sinflarda gap bo'laklari o'qitilganda sodda gaplarni ma'nodoshlari bilan almashtirish, qo'shma gaplardan sodda gaplar hosil qilish va ko'chirma gaplardan o'zlashtirma gaplar hosil qilish jarayonida foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi.

5-sinflarda ham sintaksis haqida ma'lumotga ega bo'lgach, sodda gaplarga doir mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin. Jumladan, gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, qo'shma va ko'chirmaga doir mavzularni ham o'rganishda ham o'z samarasini beradi. Masalan: “Kesim” mavzusini o'rgatayotganda kesimning gap bilan ifodalanishi, ularda ko'rsatish olmoshi –ki bog'lovchisining vazifasi, bu gaplarda, vergul (-ki bo'lsa) va ikki nuqtaning (-ki bo'lmasa) ishlatish holatlariga misollar keltiriladi. Ayrim hollarda bunday gaplarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish topshiriladi. Masalan: *Maqsadimiz shuki, bolalar bo'sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug'ullansin. Maqsadimiz: bolalar bo'sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug'ullanishsin. Bizning maqsadimiz-bolalarning bo'sh vaqtda foydali ish bilan shug'ullanishi* kabi. Demak, bu kabi amaliy ishlarning ahamiyati shundaki, belgilarning o'quvchi gap mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartiradi va ularda qanday tinish belgilari qo'yilish holatlarini anglab oladilar.

O'rta maktablarning V–VI sinflarida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda matnni gaplarga ajratish usulidan samarali foydalaniladi. O'quvchi berilgan matnda tinish belgilar tushib qoldirilgan gaplarni aniqlaydilar, har bir gapning nisbiy tugallangan mazmunga ega bo'lishini anglab oladilar. Shuningdek, gap tuzishga, har bir

gapning qanday gap ekanligini ajratishga odatlanadi. Ularda qanday tinish belgilar qo'yilishini bilib oladilar. Hatto so'z va gaplarni bir-biridan farqlaydilar. Berilgan so'zlar yordamida gap tuzishga o'rganadilar. Masalan: V sinf "Ona tili" darsligida 17-dars gap mavzusini o'rgatishga qaratilgan. Darslikda berilgan 60-61-62-mashqlar o'quvchilarni gap tuzishga, so'z va gapning farqini ajratish, hatto bitta so'zdan ham gap haqida dastlabki nazariy ma'lumotlar berishda berilgan matn tarkibidagi har bir gapni aniqlash, qanday tinish belgilar qo'yilishini anglab olish lozim bo'ladi.

Bu esa o'quvchilarga avvaldan nutqida qo'llanib yurgan gaplarga xos sintaktik qonuniyatlarni anglab olishga yaqindan yordam beradi. Hatto matn yaratish jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliy qo'llashiga, yozma nutqining ravon bo'lishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Masalan: V sinfda "Ko'chirma gap" mavzusini o'qitishda o'quvchilarga avvalo og'zaki matn yaratish keyin esa yozma dialogik matn yaratish topshiriladi. Bu esa ularning og'zaki nutqidagi har qanday fikrni yozma bayon qila olish malakasini shakllantiradi. Umuman, matn ustida ishlash o'rta maktablarda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning samarali foydalanish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarining ravon bo'lishlarini ta'minlaydi.

Mustaqil gap tuzishga o'rgatish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon bayon qila olishga o'rgatish ona tili o'qituvchilari oldida turgan eng dolzarb masaladir. Demak, bu kabi ma'suliyatli ishlarni amalga oshirish maqsadida DTS va darsliklarda bir qancha talablar va topshiriqlar berilgan. Har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib talablar belgilab qo'yilgan. Jumladan, V sinf ona tili darsligida ham gap tuzishga o'rgatishga bag'ishlangan topshiriqlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

- berilgan so'z, tayanch tushuncha, so'z birikmasi, tasviriy ifoda va iboralardan foydalanib gap tuzish;
- berilgan andozaga qarab gap tuzish;

- berilgan mavzuli rasmlar asosida gap tuzish;
- o'qituvchi tomonidan yoki darslikda tavsiya qilingan mavzuga doir gap tuzish kabi.

Xullas, ona tilining izchil kursini o'rganish jarayonida sodda gap ustida ishlash va gap tuzish berilgan barcha mashg'ulotlarni tarkibiy qismini tashkil etadi. Demak, VIII sinf "Ona tili" darsligida berilgan sintaksis bo'limining maqsadi ham shu masalani o'rgatishga qaratilgan. Darslikda berilgan gap, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, qo'shma gap, ko'chirma gap va ularda tinish belgilarning ifodalanishi kabi mavzular shular jamlasidandir.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o'quvchi shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. 1995-yilda A.G'ulomov va H.Ne'matovning "Ona tili ta'limi mazmuni"¹⁷ metodik qo'llanmasi ta'lim mazmunini yangilashda asosiy me'zon vazifasini o'tadi. Qo'llanma talabiga ko'ra:

- Til sathlarini (bo'lim) o'zaro bog'liqlikda o'rganish;
- Fonetika, leksika, grammatikani o'rganishda xususiylikdan umumiylikka , oddiydan murakkabga, tahlildan qoidaga tomon borish;
- Leksikologiyaning boshqa til bo'limlarini o'rganishda asosiy, rivojlantiruvchi vazifani bajarishini ta'kidlash;
- Leksikologiya til o'qitish metodikasining tarkibiy qismi ekanligini amaliyotda isbotlash.

Shu bilimlarga oid ko'nikma va malakalarni ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan holda mustahkamlash hamda amaliyotga joriy etish yaxshi samara beradi. Ona tili darslarida ta'li sifatini oshirish maqsadida darsliklarda mavjud bo'lgan mashq hamda topshiriqlardan unumli foydalanish mumkin. Mazkur mashqlar yordamida ona tili ta'limining sifati oshadi va o'quvchi va o'qituvchining

¹⁷G'ulomov A., Ne'matov H. "Ona tili ta'limi mazmuni", T. 1996.

darsdan tashqari mustaqil ishlashlari osonlashadi. Mashqlar yordamida mavzuni yanada mustahkamlash mumkin.

Ona tilini o'rganish jarayonida oldingi o'tilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o'zi mustaqil qoida ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir-biriga o'xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Til fanining katta bir qismini sintaksis bo'limi tashkil qiladi. Sintaksis – so'z, so'z birikmasi va gaplarning o'zaro aloqasini, so'z birikmasi va gaplarni tashkil etgan bo'laklarining xususiyatlarini o'rganadi. Sintaksis shu jihatdan morfologiyadan farqlanadi. “Morfologiya-so'zlarning grammatik xususiyatlarini, tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini tekshiradi. Bu shartli tekshirish lug'aviy ma'no asosida bo'ladi. Sintaksis ana shu so'zlar, shakllar dinamikasini, o'zaro bog'lanishini, ularning gapdagi vazifasini ma'lum fikrni ifodalashdagi o'rnini o'rganadi”¹⁸. Xorij tajribasidan kelib chiqqan holda, dasturda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga katta o'rin ajratilib, unda til va tafakkur uzviyligiga amal qilinadi. “Grammatika, grammatika uchun emas, grammatika amaliyot uchun tamoyiliga asoslandi. O'lkashunoslik materiallari, testlar, rasmlar, rebuslar va hokazolar foydalaniladi. Audio-video, kompyuter texnikasi har-bir darsning o'zagini tashkil qiluvchi o'qituvchi darsning yagona “xo'jayini” emas, uning mexanizmini harakatga keltiruvchi muloqot markaziga aylanadi. Shu ma'noda akademik litseylarda “Hozirgi o'zbek adabiy tili”ni o'qitishda har bir darsni tubandagi tizim asosida qurish lozimligi o'quv dasturlariga ajratilgan ya'ni nazariy (IV) hamda amaliyot (A) ostida tegishli materiallar beriladi.

Ona tili darslarida asosiy e'tibor o'quvchilarning nutqini o'stirish, ularda ijodiy tafakkurni va o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda savodli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Tilning sintaksis bo'limi ustida ishlashda ham yuqoridagi maqsadlarni ko'zda tutish zarur. Bunda o'quvchilarda fikrni so'z birikmasi, jumla hamda bir-biri bilan bog'liq jummalardan iborat mikromatn (abzas) yoki matn tarzida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

¹⁸ Abdurahmonov H., “O'zbek tili grammatikasi” (Sintaksis), T. “O'qituvchi”, 1996. 4-bet.

8-sinf o'quvchilarida ana shunday ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llanadigan nutqiy mashqlar tizimi haqida so'z yuritamiz.

Ma'lumki, so'z birikmalarini tuzishda, mazmunga monand so'zlarni kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilar bilan qo'llash qoidalarini bilish va ularni amalda qo'llashni o'rgatish zarur. Nutqda ko'p hollarda ma'noga ko'ra bir fikrni ifodalashda ham kelishik qo'shimchalari, ham ko'makchili birikmalarini qo'llash mumkin. Masalan: kitob olishga keldik-kitob olish uchun keldik; ko'chaga chiqib ketdi - ko'cha tomonga ketdi; bu qiz ukamdan katta - bu qiz ukamga qaraganda kattaroq va hokazo.

Ma'no jihatdan muqobil bo'lgan so'z birikmalarining har biri o'ziga xos ma'no nozikliklariga ega bo'lishi mumkin. Shunday ekan, o'quvchilarda har bir so'z birikmasining ma'no qirralarini tushunib olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi topshiriqli mashqlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir:

1. Berilgan kelishik qo'shimchali so'z birikmalarini ko'makchili muqobillari bilan taqqoslang va har bir birikmaning ma'nosini izohlang.

2. Berilgan kelishik qo'shimchali birikmalarni ko'makchili birikmalar bilan almashtiring.

3. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimcha yoki ko'makchilarni qo'yib, so'z birikmalarini to'ldiring va har birining ma'nosini izohlang.

Fikrni gap tarzida ifodalash, ya'ni gap tuzish awalambor gapda so'z yoki so'z birikmalari shaklida qo'llangan gap bo'laklarini to'g'ri joylashtirishga o'rgatishdan boshlanadi. Bu ishni berilgan tayyor matndagi darak gaplarni tahlil qilib, savollar asosida ulardagi gap bo'laklarining o'rnini aniqlashdan boshlagan ma'qul. Masalan, darslikdagi 114-mashqda berilgan *“Bir kuni boqqa shamol kirib, gullarni tomosha qila boshlabdi”* degan gapda har bir so'z yoki so'z birikmasiga beriladigan savollar (qachon? qayerga? nima? nima qildi?); *“unga gullar juda yoqibdi”* (kimga? nima? nima qilibdi?); *“gullar undan qo'rqishmabdi”* (nimalar? kimdan? nima qilibdi?) asosida gap bo'laklarining o'rni aniqlanadi.

Tahlillar natijasida gap bo'laklarining o'rni haqida quyidagicha xulosa qilinadi: vaqt holi -> o'rin-payt holi –“aniqlovchi — “ega -> to'ldiruvchi –“kesim.

Gap bo‘laklarining yuqoridagicha tartibini o‘quvchilar quyidagi misollar tahlili natijasida ham ko‘rishlari mumkin; *Yaqin kunlarda yurtimizda Mustaqilligimizning 20 yilligi keng nishonlanadi. Bu bayramda turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar ham qatnashadilar.*

Keyingi mashqlar o‘quvchilarda ana shu tartibga asoslanib, gap tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Masalan, 38-betdagi 115-mashqda o‘quvchilar berilgan so‘zlarni joy-joyiga qo‘yib, kerakli shaklda gap tuzadilar.

Gap tuzishda undagi mantiqiy urg‘uga qarab gap bo‘laklarining tartibi o‘zgarishi mumkin: jumladan, gap mazmuniga qarab, mantiqiy urg‘u tushadigan gap bo‘lagi gap oxirida turadigan kesimning oldiga qo‘yiladi. Masalan: *“Yaqinda kinoteatrda do‘stlarim ayni shu filmni ko‘rgan ekanlar”* degan gapdagi bo‘laklarning tartibini turli mantiqiy urg‘u berilishiga qarab quyidagicha o‘zgartirish mumkin:

- *Kinoteatrda do‘stlarim ayni shu filmni yaqinda ko‘rgan ekanlar.*

- *Yaqinda do‘stlarim ayni shu filmni kinoteatrda ko‘rgan ekanlar.*

Har bir misoldagi mantiqiy urg‘uga qarab gapdagi fikr maqsadi o‘zgarishi kuzatiladi. O‘quvchilarga mantiqiy urg‘u berishni savollar asosida gap tuzish mashqlari orqali o‘rgatish mumkin. Masalan, yuqoridagi gaplarning turli variantlarini tuzish uchun quyidagi savollar beriladi:

- *Yaqinda do‘stlaring kinoteatrda qaysi filmni ko‘rgan ekanlar?*

- *Do‘stlaring kinoteatrda ayni shu filmni qachon ko‘rgan ekanlar?*

- *Yaqinda ayni shu filmni kinoteatrda kim ko‘rgan ekan?*

O‘quvchilarda gap (jumla) tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishda yana quyidagi topshiriqli mashqiarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. Berilgan so‘zlar yordamida kerakli qo‘shimcha va ko‘makchilarni qo‘llab, gaplar tuzing.

2. Berilgan savollarga javob bo‘lgan gaplarni tuzing.

3. Berilgan gapni davom ettiring.

4. Nuqtalar o‘rniga gapning boshini yozing.

Tuzilgan jumlar yordamida fikrni mikromatn (abzas) tarzida ifodalashni o'rgatishda ham quyidagi qoidalarga rioya qilish kerakligi uqtiriladi:

1. Voqea-hodisalarning vaqtga nisbatan ketma-ketligiga rioya qilish (masalan, avval eshik ochiladi, keyin uyga kiriladi, so'ngra, joy-joyiga o'tiriladi).

2. Mantiqiy izchillikka rioya qilish (masalan, *bolaning o'yinchog'ini o'rtog'i tortib oldi. Shuning uchun u yig'lay boshladi. Ammo xona eshigi yopiq bo'lgani uchun uning yig'isini kattalar eshitmadi va xonaga kirmadi.* Bu misolda bola harakati va harakat sababi o'rni o'zgartirib bo'lmaydi).

3. Jumalarni bir-biriga bog'lash vositalari (bog'lovchi olmosh, kirish so'zlar kabilarni fikr maqsadiga ko'ra to'g'ri tanlash. O'quvchilarda yuqoridagi qoidalarni o'zlashtirib, ularni qo'llagan holda mikromatn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish uchun bu qoidalarning har biriga rioya qilish bo'yicha muayyan mashqiar o'tkazish zarur. Bu mashqiar tizimi har bir qoidani tayyor matnda kuzatib tahlil qilishdar boshlab to qoidani qo'llagan holda mustaqil ravishda mikromatn tuzish topshiriqli mashqlaridan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarda matn tuzish, aniqrog'i fikrni matn tarzida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda esa mikromatn (abzas)lararo izchillikka rioya qilinishi hamda matnning har bir tarkibiy qismi (kirish, asosiy qism va xulosa) kabilarning xususiyatlari va ularda qo'llanadigan bog'lovchi vositalar haqida ham bilim berish va amaliy mashqlar o'tkazish kerak bo'ladi. Fikrimizcha, amaldagi darsliklarning qayta nashrlariga yuqoridagi kabi topshiriqli nutqiy mashqlar kiritilsa, fikrni mustaqil ravishda matn tarzida ifodalash ko'nikma va malakalarini shakllantirish osonlashadi.

8-sinflarda esa "Sodda gap sintaksisi" sarlavhasi ostida 20 soat dars uchun ajratilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- Sodda gaplar haqida umumiy ma'lumot
- Gapning bo'laklarga ajratish: kesim va uning ifodalanishi
- Fe'l kesim va ot kesim
- Sodda kesim va murakkab kesim
- Murakkab ot kesimlarning tuzilishi
- Kesimlarning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi

- Ot kesim va ega orasida tirening qo‘llanishi
- Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari
- Ega va uning ifodalanishi
- Egali va egasiz gaplar
- Egasi yashiringan gaplar
- Egasiz gaplar shaxsi noma’lum gap
- Atov gap
 - So‘z – gaplar
 - Yoyiq atov va so‘z gaplar

8-sinf ona tili darslarida soda gap sintaksisiga oid mavzularni o‘qitish jarayonida, albatta, mashq va topshiriqlarning ahamiyati katta. Berilgan mavzuning tez va oson tushunilishi uni qay yo‘sinda mustahkamlanishiga bog‘liq. Darslikning “Sodda gap sintaksisi” bo‘limida 63 ta mashq berilgan. Ushbu mashqlar o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini o‘stirish, fikrlashga o‘rgatish va asosiysi mavzuga oid ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan.

Masalan, “Sodda gap haqida umumiy ma’lumot” mavzusining 110-mashqiga e’tibor qaratamiz. Mashq sharti quyidagicha: “Juftlab berilgan gaplarning kesimini aniqlab, ularni soda va qo‘shma gaplarga ajratib ko‘chiring. Soda va qo‘shma gaplar orasidagi asosiy farq xusuida fikringizni ayting.”¹⁹ Mashqda esa gaplar juftlikda taqdim etilgan:

Kun botdi. Quyosh qoraya boshladi. – Kun botib, quyosh qoraya boshladi.

Ushbu juftlik mashq shartiga nechog‘lik mos keladi? Axir bu juftlikda qo‘shma gap mutlaqo mavjud emas. O‘quvchida beixtiyor *Kun botib, quyosh qoraya boshladi* misolini qo‘shma gap deb qabul qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Ravishdoshli qurilmalar haqida esa ularga 9- sinfda ma’lumot berilgan. Mashqda bu kabi tushunarsiz holatlarning mavjudligi o‘quvchilar bilim olishiga halal berishi tayin.

¹⁹Qodirov M., va boshq. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014. 54-bet.

Aynan shu mavzuning 112-mashqi o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida tavsiya etilgan. Mashq sharti quyidagicha: “Matnni o‘qib, undagi soda gaplarni ko‘chirib yozing”. Mazkur mashqda “Kabutar va chumoli” sarlavhali kichik hikoya berilgan. Hikoyaning didaktik tabiati o‘quvchilarda yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish va yaxshilik qilishdan hech qachon chekinmaslik lozimligini uqtiradi. Bu kabi mashqlar o‘quvchilarning ma’naviy olamiga ham jiddiy ta’sir etadi. Darslik mualliflarining mashqlar uchun tanlagan matnlari o‘quvchilarning tarbiyasiga ijobiy ta’sir etishi quvonarli holdir. Xuddi shunday xususiyat darslikdagi 120-mashq²⁰ (“Nimani eksang, shuni o‘rasan”), 172-mashq²¹larga ham xosdir. O‘quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi. O‘quvchilarni o‘z vataniga, xalqiga muhabbat, butun dunyo xalqlariga nisbatan do‘stlik, birodarlik ruhida tarbiyalash maqsadida vatan va uning tabiati, istiqloq, xalqimiz haqidagi matnlar o‘qitiladi.

Darslikning “Fe’l kesim va ot kesim” mavzusidagi 125-mashq o‘quvchilarda tez fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Mashq shartiga ko‘ra berilgan gaplardagi kesimlarni ot kesim yoki fe’l kesim ekanligini aniqlash topshirilgan. Mazkur mashqni sinfda musobaqa tarzida bajaraish ham mumkin. Bunda sinf o‘quvchilarini ikkita kichik guruhga ajratib, yozuv taxtasining birinchi yarmiga ot kesimlarni, ikkinchi yarmiga esa fe’l kesimlarni yozish topshiriladi. Ot kesimlarni birinchi guruh aniqlasa, fe’l kesimlarni ikkinchi guruh aniqlaydi.

Maktabda ona tili darslarini aksariyat hollarda musobaqa tarzida tashkil etishadi. Bu esa o‘quvchilarning ishtiyoqini oshiradi. Mashqlarda ham asosan, matnni o‘qib mazmunini so‘zlab berish (127-mashq), tinsh belgilarini to‘g‘ri qo‘llash (139-mashq), gap bo‘laklarini to‘g‘ri farqlashga o‘rgatish (129-mashq) yoki berilgan so‘zlar asosida gap tuzish singari toshiriqlar beriladi. Ayniqsa, berilgan so‘zlar asosida gap tuzish yoki matn tuzish singari mashqlar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday mashqlar sirasiga

²⁰ O‘sha manba. 58-bet.

²¹ O‘sha manba. 80-bet.

128- , 132- , 136-, 149- mashqlarni misol qilishimiz mumkin. Odatda, bunday mashqlar uyga vazifa sifatida beriladi. Bunda esa bolalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ko'zlanadi. O'qituvchi darsni tashkil etishda mavzuni aniq belgilash va o'quv materiallarini tayyorlashi lozim. Kuzatishlarimiz bu xususda o'qituvchilar qo'lida hech qanday manba yo'qligini ko'rsatdi. 8-sinf ona tili fanidan o'qituvchi kitobi mavjud emas. Ona tili darslarini tashkil qilish va o'tkazish masalasi Ona tili o'qitish metodikasiga doir T.Ashrapova va M.Odilovalarning, hamda K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalarning darslik va o'quv qo'llanmalarida, ommaviy matbuot nashrlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, ona tili o'qitish metodikasining u yoki bu masalasini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasiga bag'ishlangan ishlar ham mavjud. Xususan, Q.Abdullayevaning "Yangi pedagogik texnologiyalar", J.Tolipovaning "Modulli dars", R.Ubayxo'jayevaning "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash", M.Xoliqovaning "Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish", T.G'afforovaning "Erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatish" nomli maqolalarida ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi o'rganilgan.

Ona tili - nutq: o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Biz Mustaqil va nomustaqil kesimlar mavzusini o'rgatish yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasi tayyorladik.

III BOB. Ishning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ta'lim bosqichlari ona tili darsliklarida masalaning berilishi

Sintaksisga doir mavzular o'quvchilarga 5-sinfdan boshlab o'rgatiladi. Lekin aslini olganda, quyi sinflardayoq bolalar bu mavzu haqida tushunchaga ega bo'la boshlaydilar va yuqori sinflarga puxta fundamental bilim bilan o'tadilar. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining V-IX sinflari uchun "Ona tili"dan yangi tipdagi-ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish maqsadli dastur asosida yaratilgan yangi darsliklarning ikkinchi avlodi-N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva va boshqalar tomonidan tuzilgan darsliklar kirib keldi. 2005/2006-o'quv yilida mazkur darsliklarning V, VI, VII sinflarga mo'ljallanganlari amalda bo'ldi²². Yangi maqsadni ko'zlaydigan darsliklarni tuzish va ommalashtirish tajribasi yig'ilmoqda. Shuning uchun ona tili o'quv o'quv predmetidan ta'limning yangi mazmuni, usuli va vositalarini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiqligini har tomonlama tadqiq etish, bu yo'ldagi tajribalarni umumlashtirish, bugun o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tajribalar xazinasida bo'lgan A.G'ulomov, M.Asqarova, Y.Abdullayev, M.Omilxonova, H.Ne'matov, A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, M.Abduraimova, M.Qodirovlar, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirovlar tomonidan tuzilib, amaliyotda qo'llanilgan, shuningdek, A.Hojiyev, A.Nurmonov, N.Ahmedovlar tomonidan sinov uchun chiqarilgan "Ona tili" darsliklari o'quv materialini, ularda mujassamlangan ta'lim usuli, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini har tomonlama o'rganish, muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, "borini avaylab asrash va yo'qini yaratish yo'li"dan og'ishmay borish uchun darsliklarni sinchiklab tekshirish oldimizda turgan muhim vazifalardir. Ta'limining zamonaviy, davr talablari bilan uyg'un maqsadi aniqlandi, uni voqelantirishning umumiy yo'llari belgilab olindi, navbatdagi vazifa ona tilidan maktabda o'tkaziladigan har bir darsni, mustaqil va sinfdan tashqari

²²Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2004. –224 b.; Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2005. – 178 b.; Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2005. – 128 b.

ishlar tizimini shu maqsadga bo'ysundirish, umumiy maqsad bilan har bir topshiriq maqsadi orasida ishimizning 1-bobida eslatib o'tilgan dialektik-gnoseologik munosabatlarini ta'minlashdir. Bunga erishish metodikamiz, ona tili ta'limimiz oldida turgan muhim vazifalardandir. Albatta, darslikda berilgan ma'lumotlar mustahkamlanishi shart.

Akademik litsey va KHK larda ham sintaksisga oid mavzular o'quvchilarga beriladi. KHK larda bu mavzu uchun alohida dars soati ajratilmagan. Bunda maktabda olingan fundamental bilimlarga asoslaniladi. Ammo KHK lardan farqli o'laroq, akademik litseylarda Gap bo'laklari va uning sintaksisini o'qitish uchun 12 soat ajratilgan. Bu 6 juftlik deganidir. Joriy soatlar III bosqich o'quvchiri uchun taqsimlangan. Albatta, ma'lumotlar maktabdagiga nisbatan ancha to'liq va puxta. Bu esa darsni ijobiy tashkillashtirishni talab etadi.

Ammo, umumiy o'rta ta'limning 2010-yilda yangi tahrir qilinib, takomillashtirilgan DTS talablarida sintaksis bo'limiga tegishli nazariy ma'lumotlar ham aniq ko'rsatib berilgan. Yangilangan DTS va o'quv dasturining yana bir e'tiborli jihati shundaki, unda ona tili fanidan har bir sinf o'quvchilari o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar alohida tasniflangan. Shu ma'noda, sintaksis bo'limi ham keng ochib berilgan. Jumladan, 5-sinflarda sintaksisning umumiy mazmun mohiyati, so'z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari; gapning bosh (ega va kesim) va ikkinchi darajali (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bo'laklarini; sodda (yig'iq va yoyiq)gaplarni o'rganish ko'zda tutiladi. O'quvchilarning boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan sintaksis bo'limiga tegishli dastlabki ma'lumotlari mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. 6-,7-sinflarda esa leksikologiya va morfologiya bo'limlarini o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. 7- sinfda sintaksisdan faqatgina so'z birikmalari, otli va fe'lli birikmalarni o'rganish nazarda tutiladi. Bu bosqichlarda o'quvchilarga so'zning leksik va grammatik ma'nosi borasida keng ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar, asosan, 8-,9-sinflarda sintaksis bo'limiga tegishli nazariy tushunchalarni mukammal o'rganishga yo'naltirilgan. Chunki bu bo'lim tilshunoslikning eng yirik va o'z navbatida, anchayin murakkab bo'limi

hisoblanadi. Shuningdek, bunda o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchilar gap bo'laklariga nisbatan so'z turkumlarini oson o'zlashtiradilar. So'z turkumlarini yetarli darajada o'rgangan o'quvchigina gap bo'laklarini aniq va to'g'ri ajrata oladi; so'z birikmalarini farqlaydi; sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantira oladi, murakkab matnlar tuzadi, qo'shma gap sintaksinini talab darajasida o'zlashtiradi. Dastur va darsliklar tahlilidan ayon bo'ladiki, o'quvchilarning gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklarning mukammal tasnifi va tavsifi borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish ishlari, asosan, 8- sinflarda keng amalga oshiriladi. Bu DTS talablarida quyidagicha aks etgan: "Sodda gap sintaksisi. Gap va uning nutqdagi o'rni. Gapning grammatik asosi. Ega va kesim, ularning ifodalanishi. Sodda gap, uning tuzilishi, ma'no xususiyatiga ko'ra turlari. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi, ularning ifodalanishi. Ma'no va grammatik tuzilishiga ko'ra turlari. Gapda gap bo'laklarining tartibi. Odatdagi tartib. O'zgargan tartib. Gapda kirish bo'laklar..."²³ Shu tartibda bu bosqichda uyushiq bo'laklar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ajratilgan bo'laklar haqida ham bir qadar keng tushunchalar berish nazarda tutiladi. 9- sinflarda ona tili sintaksisini o'qitish bevosita qo'shma gaplar, ularning grammatik xususiyatlari, matn yaratish texnologiyasi kabi yirik va ayni paytda murakkab nazariy tushunchalarni o'rganish bilan bog'liq. Umumiy ta'limda ona tili sintaksisni o'qitish DTS va o'quv dasturlarida anchayin keng, har bir sinf o'quvchilari o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar mufassal bayon qilingan, aniq yo'nalishlar belgilab berilgan.

O'quvchilar umumiy o'rta ta'limda ona tili fanidan o'zlashtirgan bilimlarini, ko'nikma va malakalarini o'rta maxsus ta'lim – akademik litseyda, kasb-hunar kollejlarda davom ettirish, yanada boyitish imkoniga egadirlar. Shunga ko'ra, bu bosqichdagi ona tili ta'limining mazmuni, maqsad va vazifasi umumiy o'rta

²³Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. (5 – 9 sinflar), – T., 2010, 17-19- b.

ta'limga uyg'un holda takomillashtirilgan bo'lib, bu fan akademik litseylarda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomi bilan yuritiladi.

Akademik litseyda sintaksis to'g'risidagi nazariy tushunchalar so'z birikmasi va uning tuzilishi, so'z birikmasini hosil qilish yo'llarini mukammalroq o'rganish bilan boshlanib, bu ta'lim bosqichida ham sodda va qo'shma gaplar, gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning grammatik xususiyatlari, uyushiq va ajratilgan bo'laklar, qo'shma gap sintaksisi to'g'risida nihoyatda keng ma'lumot berish nazarda tutiladi. Akademik litseylarda sintaksisga kirish ikkinchi bosqichdan boshlab o'qitiladi. Birinchi bosqichda talabalar hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetika, leksikologiya, lug'atshuoslik sohalari bo'yicha mufassal ma'lumotlar oladilar, muayyan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradilar. Sintaksis bo'limining o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy tushunchalari akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha yaratilgan dasturida yanada keng yoritilgan, ularning har biriga alohida izohlar berilib, muayyan soatlar ajratilgan. Bu haqda biz mazkur bobning keyingi faslida alohida to'xtalib, batafsil ma'lumotlar berishga harakat qilamiz. Endi fikrimizni kasb-hunar kollejlariida ona tili sintaksisini o'qitishning ilmiy-metodik asoslariga qaratamiz.

Kasb-hunar kollejlariida o'zbek tili o'qitishga asoslangan fan xuddi umumiy o'rta ta'limdagidek, "Ona tili" fani deb yuritiladi. Kasb-hunar kollejlari uchun ona tili va adabiyot fanidan yaratilgan o'quv dasturida ona tili o'qitishning maqsadi quyidagicha belgilab berilgan: Ona tili fanini kollej o'quvchilariga o'qitishdan asosiy maqsad milliy qadriyatlarimiz asosi sanalmish ona tilimiz va adabiyotimizning bebaho merosi, an'analari bilan tanish bo'lgan o'quvchilarning bilimlarini sistemali yo'sinda umumlashtirish va egallagan ko'nikmalarini mustahkamlashdir.

Mazkur maqsadni samarali amalga oshirish uchun esa kollejlariida o'qitiladigan "Ona tili va adabiyot" fani uchun:

– o'rta maktabda kam e'tibor berilgan mavzularni to'ldirish;

–o‘quvchilar to‘la anglab yetmagan yoki tushunilishida qiyinchilik tug‘diradigan mavzularni kengroq izohlash va shu orqali yetarli nutqiy malakani shakllantirish;

– adabiy-badiiy matnlar ustida ishlash, ko‘nikmalarni o‘stirish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, dasturni tuzishda ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta maktab dasturiga asoslanilgan va bu ta‘lim bosqichida chuqur o‘zlashtirilmagan bilimlarni singdirishga e‘tibor qaratilgan. “Dastur mazmunida o‘quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritishlariga, o‘z ustlarida ko‘proq ishlashlariga, bilim egallashning tipiklashtirishdan umumlashtirishga qarab borish, dalillarni sharhlash va asoslash yo‘sinlariga asosiy diqqat qaratildi. Shuningdek, dasturni yaratishda tajribali metodist o‘qituvchilarning taklif-istaklari, chet el kollejaridagi ta‘lim tizimi mazmuni o‘rganilganligi va inobatga olinganligi ham alohida diqqatga sazovordir”²⁴.

Ushbu dastur amaldagi dasturlardan birinchidan, umumiy o‘rta maktabning sinovdan o‘tgan yangi dasturlari negizida yaratilganligi, ikkinchidan, o‘zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy tadbiri bosh mezon sifatida tanlanganligi, hamda tarixiylik, izchillik, milliylik va zamonaviylik tamoyillariga to‘la bo‘y sundirilganligi bilan ajralib turadi.

Dastur mualliflarining e‘tirof etishicha, kasb-hunar kollejaridagi ta‘lim mazmuni yo‘nalishi va o‘quvchilarning ona tilidan o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlarni ehtiyoj va qiziqishga muvofiqlashtirib tavsiya etish ma‘qul deb hisoblangan.

Bunda o‘quvchilarning ona tiliga e‘tiborini kuchaytirish, tilning ijtimoiy mohiyatini anglash, o‘z ona tili fani tarixi, o‘ziga xos tabiatini bilish, davlat tili sifatida undan to‘la foydalanish imkoniyatlarini izlashi lozimligini tushuntira va singdira olish orqali amalga oshirilishiga keng e‘tibor berilgan.

²⁴Rafiyev A.R., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv dasturi. –T., 2010, 3- b.

Shu asosda kollej talabalarining o'zbekcha nutqiy savodxonlik darajasini o'stirish, so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash, fikrning ravshanligini ta'minlovchi lisoniy vositalardan o'rinli foydalanish borasidagi ko'nikmalarini mustahkamlashga keng o'rin ajratilgan. Shuningdek, dasturda ona tili fani o'qituvchisining bu borada samarali natijalarga erishish yo'llari ham ko'rsatib berilgan. O'qituvchi turli nazorat shakllari yordamida har mavzudan so'ng o'z o'quvchilarining nutqiy savodxonligini, mantiqiy fikrlashini tekshirib borishi, muayyan mavzular puxta o'zlashtirilmaganicha yangi mavzuni boshlamasligi lozim bo'ladi. O'qituvchi grammatik qoidalarning amaliy tatbiqiga xos jihatlarga, so'z va gapning nutq hosilasi sifatidagi xususiyatlariga, gap tuzishdagi g'alizlikka barham berishga e'tiborni qaratishi lozim.

Shunisi e'tiborliki, kasb-hunar kollejlarning ona tili dasturi va darsligida mavzular 4 ruknga ajratib yoritilgan. Bular "Ona tilim – jonu dilim", "To'g'ri yozish – savodxonlik asosi", "Ko'ngil duri ichra guhar so'zdurur", "Ifoda aniqligi – fikr ravshanligi" kabi ruknlar bo'lib, ularning har birida o'ziga xos mavzularni o'rganish ko'zda tutilgan. Chunonchi, birinchi ruknda til va tafakkur, o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun va undan kelib chiqadigan vazifalar haqida ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan bo'lib, buning uchun 5 soat ajratilgan. Ikkinchi ruknda esa to'g'ri yozish, yozma savodxonlik, tinish belgilari imlosi haqida ma'lumotlar berish uchun 7 soat ajratilgan. Uchinchi ruknda buyuk mutafakkirlarning so'z haqidagi fikr-mulohazalari, so'z qudrati, nutqda so'zni to'g'ri qo'llash mezonlari, so'zlarning ma'no munosabati o'rganiladi va buning uchun 7 soat rejalashtirilgan. Kollej o'quvchilariga sintaksisni o'qitish to'rtinchi ruknda rejalashtirilgan va bunga 16 soat vaqt belgilangan. Ushbu rukn ona tili fani uchun ajratilgan mavzularning katta qismini qamrab olgan. Bunda gap qurilishi, matn yaratish texnologiyasi, inversiya hodisasi, kiritma gaplar, matnning tuzilishi va mazmuniga ko'ra turlari to'g'risida muayyan ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan. Kuzatishlardan ko'rinadiki, kasb-hunar kollejlarda ona tili faniga tegishli mavzular orasida sintaksisni o'qitishga keng e'tibor qaratilgan, shuning uchun mazkur fanga ajratilgan soatlar miqdori ham ko'proq. Biroq, bunda

sintaksisni o‘qitish, asosan, gap qurilishi va matn yaratish texnologiyasi bilan bog‘liq. Ammo bu ta’lim bosqichida gap bo‘laklarini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmagan va muayyan mavzular belgilab berilmagan. “Ona tili” dasturida belgilangan asosiy mavzularda adabiy-badiiy matnni lisoniy-badiiy tahlil etish orqali ham til bilimlarini mustahkamlash nazarda tutilgan. Ammo dasturda ona tili mavzularini o‘rganishga 40 soat ajratilgan bo‘lib, mazkur soat uch yillik majburiy ta’lim hisoblangan kasb-hunar kollejlari uchun bir qadar qisqadek tuyuladi. Chunki, kasb-hunar kolleji talabasi muayyan kasbga yo‘naltirilib o‘qitiladi va unga shu yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislik diplomi beriladi. Bugungi talaba – ertangi mutaxassis. U jamiyatning turli sohalarida faoliyat olib borishi mumkin. Shu ma’noda, bu talaba ona tili fani bo‘yicha, asosan, maktab ta’limida o‘zlashtirgan bilimlariga tayanib ish yuritishga majbur bo‘lib qolmoqda. Zero, ona tili bu – Hozirgi o‘zbek adabiy tili, ya’niki, Davlat tili. Mutaxassis sifatida faoliyat olib borayotgan xodimning o‘zbek adabiy tilini puxta egallagan bo‘lishi hujjatlar ustida ish yuritganda ham, maktabgacha ta’lim, tibbiyot sohalarida faoliyat olib borganda ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri, kasb-hunar kollejlarda Davlat tilida ish yuritish, Nutq madaniyati asoslari singari alohida fanlar o‘qitiladi. Ammo bu fanlar hamma kollejlarda ham o‘qitilmasligini e’tibordan qochirmaslik lozim.

Shuningdek, kasb-hunar kollejini tugatayotgan aksariyat talabalar oliy ta’lim yo‘nalishlariga hujjat topshirib, o‘qishini davom ettirishga, oliy ma’lumot egallashga intiladi. Ular 40 soatgina ajratilgan ona tili fanini birinchi kursning ikkinchi semestrida o‘qib-o‘rganib ulgurishgan. Keyingi bosqichlarda esa ona tili o‘qitilmaydi. Aksincha, adabiyot faniga 80 soat ajratilgan. Lekin oliy ta’limga qabul imtihonlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanidan tayyorlanadigan test savollarining 75-80%i (36 tadan 24-28 tasi)ni o‘zbek tiliga tegishli savollar tashkil qiladi. Ushbu mulohazalardan ko‘rinadiki, bugungi metodist olimlarimiz, kasb-hunar kollejlari tegishli “Ona tili va adabiyot” dasturi mualliflari masalaning ayni shu jihatlarini kengroq o‘rganib, tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqsalar, ona tili ta’limiga ajratilgan soatlarni kengaytirish ustida muayyan ishlarni amalga oshirsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, ta‘lim bosqichlarida ona tili sintaksisini o‘qitish shu ta‘lim tizmining o‘ziga xos xususiyatlari, ona tili fanini o‘qitishning miqdoriy ko‘rsatkichlari, ta‘limiy mazmuni, shuningdek, o‘quvchi-talabalarning yosh va fiziologik imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Umumiy o‘rta ta‘limda o‘quvchilar sintaksis bo‘limiga tegishli nazariy tushunchalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradilar; o‘rta maxsus ta‘limda, ya‘ni akademik litseyda esa bu ma‘lumotlar yanada mustahkamlanadi, boyitiladi; kasb-hunar kollejlarida sintaksis o‘qitish esa bevosita matn turlari, matn yaratish texnikasi to‘g‘risida ma‘lumotlar berish, o‘quvchilarning o‘z fikrini aniq va to‘g‘ri ifodalay olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Ta‘limning qaysi bosqichida bo‘lmasin, sintaksis bo‘limini o‘rganishga qancha vaqt ajratilgan bo‘lmasin, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan har qanday mas‘uliyatli ona tili o‘qituvchisi darslarni dasturiy talablar asosida shakllantirsa, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mahorat bilan foydalana olsa, ona tili ta‘limining samaradorligiga munosib hissa qo‘shadi, o‘quvchilarining teran bilimli, yuksak ma‘naviyatli shaxs sifatida kamol topishlariga erishadi.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Mavzu: Gap bo‘laklari

Darsning texnologik xaritasi

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Gap bo‘laklari ikkiga bo‘linadi: 1. Bosh bo‘lak. 2. Ikkinchi darajali bo‘lak			
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:			
Metod: Interfaol, masq, namoyish qilish, mustaqil ishlash.			
Shakl: Guruh bilan ishlash			
Jihoz: Slayd, tarqatma kartochkalar			
Nazorat: Uy vazifasini tekshirish, og‘zaki so‘rov, doskada va mustaqil ravishda firlashda ko‘nikma hosil qildirish			
Baholash: Doskada yoki mustaqil ravishda faolligiga qarab o‘quvchilar baholanadi.			
Darsning maqsadlari:			
Ta’limiy: O‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.			
Tarbiyaviy: O‘quvchlarni o‘z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash, bir-birlariga o‘zaro hurmat, jamoa bo‘lib ishlash, o‘zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mas’uliyat sezish ko‘nikmalarini tarkib toptirish.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrini aniq ifodalashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Dars bosqichi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O‘quvchilarning davomati aniqlanadi. O‘quvchilarning darsga hozirligi tekshiriladi.		1 minut

2-bosqich. Ehtiyoj (refleksiya) larni aniqlash.	O‘tilgan mavzu yuzasidan munozara qilinadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Munozara	2 minut
3-bosqich. O‘tgan mavzuni mustahkamlash.	Uy vazifani tekshirish, aqliy hujum orqali mustahkamlash.	Savol-javob	3 minut
4-bosqich. Yangi mavzu bayoni	Gap bo‘laklari mavzusi tushuntiriladi.	Savol-javob	15minut
5-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash.	O‘quvchilar bilan birgalikda F.S.T, Klaster metodidan foydalaniladi.	Mustaqil ish, savol-javob.	20 minut
6-bosqich. Baholash	Darsdagi faolligiga qarab o‘quvchilar baholanadi.		2 minut
7-bosqich. Uyga vazifa berish.	215-mashq uyga vazifa sifatida topshiriladi, bajarish yuzasidan tegishli ko‘rsatma beriladi		2 minut

Dars jarayoni

1-bosqich texnologik xarita asosida o‘tadi.

2-bosqich. Kirish suhbatini uyushtirish.

Dars shiorini tanlash:

“ Bugungi ishni, ertaga qo‘yma!”



3-bosqich. Uy vazifasini tekshirish:



Har bir guruhga topshiriqlar beriladi va savollar beriladi. Tayyorlanish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi va taqdimot uchun 3 daqiqa beriladi.

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va faol o‘quvchilar baholanadi .

4-bosqich. Yangi mavzu bayoni:

Slayd namoyish qilinadi.





5-bosqich: Yangi mavzuni mustahkamlash.

”Atamalarni izohlaymiz” o‘yini

Bu o‘yin mustahkamlash darslarida, takrorlash darslarida foydalanishi mumkin.

O‘yin shartiga ko‘ra o‘quvchilar 10 daqiqa ichida daftarlariga mustaqil tarzda o‘tilgan mavzularga oid atamalar ro‘yxatini tuzish va ularning ma’nosini izohlash yuzasidan musobaqalashadilar

Namuna: Atamalar ro‘yxati

1. Gap bo‘lagi
2. Ega
3. Kesim.
4. Aniqlovchi
5. Sifatlovchi aniqlovchi
6. Qaratqichli aniqlovchi
7. To‘ldiruvchi
8. Hol

Atamalar izohi: Gap tarkibida ma’lum so‘roqqa javob bo‘luvchi mustaqil so‘z yoki so‘zlar birikmasi gap bo‘laklari deyiladi.

Darslikdagi quyidagi mashqlar ustida ish olib boriladi.

213-mashq. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirok etgan to‘rtta gap tuzing.

214-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring va ularning qanday gap bo‘lagi ekanligini aniqlang.

Ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Turtinib-surtinib o‘z ...imga bordim-da, ...imni ko‘rpaga burkab ...larimda yosh tamom bo‘lguncha ...dim.

– Qalpoqcham, ey ...larda hamisha yo‘ldoshim, maslahatgo‘yim, qani ayt-chi, nega men maqsadga erisha olmadim.

– Chunki ...ing yo‘q edi, – deydi qalpoqcham.

– Ilm olish uchun nima qilish kerak edi?

– ...ing kerak edi.

– Nima?

– Ha, ha, o‘qituvching Qobilov, sevimli direktoring Otajon Azizovichlarning ...iga quloq solishing kerak edi.

– Demak, sen ...i chalg‘itgan ekansan-da, aldabsan-da!

– Yo‘q, ...madim, ...madim fikrlaring xato ekanligini tushunib olgin, deb qo‘limdan kelgancha ko‘maklashdim, yordamimni ...madim

(X. To‘xtaboyev)

Kerakli so‘zlar: *safar, gap, alda, chalg‘it, ilm, o‘qish, aya, bosh, men, ko‘z, o‘rin, yig‘la.*

Mavzuni mustahkamlash uchun grammatik o‘yinlarga murojaat etamiz.

”O‘yla, izla, top!” o‘yini

O‘yin shartiga ko‘ra, gap qoliplari asosida gap tuzishlari lozimligini, qisqa vaqt ichida birinchi bo‘lib, to‘g‘ri va mazmunli gap tuzgan o‘quvchi g‘olib bo‘lishi ta’kidlanadi.

1. - - - - - =====.

2. ~~~~~ _____ - - - - - =====.

3. _____ - - - - - =====.

4. _____ ~~~~~ - - - - - =====.

“Hasharchilar” o‘yini

O‘yinning jihozi: Rasmlar, tarqatma material

Sinf o‘quvchilarini ikki guruhga bo‘lib, ularga o‘yin sharti tushuntiriladi. Yangi o‘rganilgan mavzuga oid so‘zlarni ifodalovchi rasmlar tarqoq holda beriladi. O‘quvchilar o‘qituvchining ruxsati bilan chegaralangan vaqtda belgilangan o‘yin o‘tkaziladi. Qaysi guruh o‘quvchilari birinchi bo‘lib matn tuzsa, o‘sha guruh o‘yinning 1-bosqichida g‘olib hisoblanadi. Bunda matnning tarbiyaviy ahamiyatiga, uslubiy to‘g‘riligiga hamda imlo xatolariga yo‘qligiga alohida e‘tibor qaratiladi. O‘yinning 2-bosqichida 2-guruh g‘olib guruhning matnidagi imloviy va uslubiy xatolari to‘g‘irlaydi.

Bunda barcha o‘quvchi o‘yin jarayonida ishtirok etishi kerak. Guruh a‘zolarinin to‘liq ishtirok etishiga ham ball qo‘yiladi.

O‘quvchilar o‘yin jarayonida hamjihatlikka, bir-birlariga yordam berishga, ongli ravishda mustaqil fikrlashga o‘rganadilar.





6-bosqich:

Darsdagi faolligiga qarab o'quvchilarni bilimlarini baholash va rag'batlantirish. Savollar orqali darsga yakun yasash.

7-bosqich:

Uyga vazifa

215-mashq. Uyga topshiriq. Bilim va uning ahamiyati haqida uchta gap yozib, gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 40 b.
4. Abdullayev A.B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘zga gaplarning ifoda formalari. – T.: TDPI, 1983. – 87 b.
5. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 248 b.
6. Abduraimova M. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. –T.: Ijod dunyosi, 2002. – 109 b.
7. Abuzalova M. O‘zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qoliplari va uning nutqda voqelanishi: Filol. fanlari nomzodi dis... –Buxoro, 1994. – 128 b.
8. Akromov T. Hozirgi o‘zbek tilida ot-kesim: Filol. fanlari nomzodi dis...–T.: 1967. –174 b.
9. Bobokalonov R. O‘zbek tilida funksional-semantik shakllangan so‘z-gaplar: Filol. fanlari nomzodi dis... – T.: 2000. – 136 b.
10. Bobokalonov R. O‘zbek tilida gap sintaksisi va so‘z-gaplarning sistem-struktur talqini. –T.: Fan, 2006. – 38 b.
11. Bozorov O. O‘zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi: Filol. fanlari nomzodi dis. ...avtoref. – Farg‘ona, 2004. – 23 b.
12. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. (Sintaksis). –T.: O‘qituvchi, 1995. – 228 b.
13. Mahmudov N.M. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik sintaktik asimmetriya. –T.: O‘zbekiston, 1984. – 147 b.
14. Mahmudov N.M. Til. –T.: Yozuvchi, 1998. – 40 b.
15. Mengliyev B. O‘zbek tilining struktur sintaksisi: 5220100 – filologiya (O‘zbek filologiyasi) yo‘nalishi baklavri uchun o‘quv qo‘llanmasi.– Qarshi: Nasaf, 2003. – 147 b.

16. Mirtojdiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. –T.: O‘zbekiston, 1992. – 110 b.
17. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. –T.: O‘qituvchi, 1970.–267 b.
18. Muhamedova S. Valentlik nazariyasining Yevropa va o‘zbek tilshunosligidagi rivoji. –T.: Universitet, 2000. – 12 b.
19. Ne‘matov H., G‘ulomov A., va boshq. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2001. –142 b.
20. Ne‘matov H., Mengliyev B. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi, metodikasi va metodlari. – Qarshi, 2006. – 121 b.
21. Ne‘matov H.G. va boshqalar. So‘z boyligini oshirish: Metodik qo‘llanma. Ne‘matov H.G., G‘ulomov A.K. , Ziyodova T.U. -T.: Fan, 1997. -98 b.
22. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. –T.: Fan, 1988. –100 b.
23. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. Andijon, 2006.
24. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.: Fan, 1992. – 294 b.
25. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejforming 3-bosqich talabalari uchun darslik. – T.: “Ilm ziyo”, 2010.
26. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O‘zbek tili grammatikasi. T.II. Sintaksis. – T.: Fan, 1976. –560 b.
27. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jildlik. – M.: Rus tili, 1981.
28. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 164 b.
29. Qodirov M., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. –T.: Ma‘naviyat, 2004. –222 b.
30. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili: sodda gap sintaksisi uchun materiallar. – T.: 2002. – 120 b.
31. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. Til qurilishini tizim sifatida o‘rganish masalalari. –T.: Universitet, 2007. – 159 b.

32. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning formal-funksional talqini: . –T.: Fan, 1994; -B.8.
33. Yo‘ldosheva N. Yig‘iq gaplarning formal-funksional talqini: Filol. fanlari nomzodi dis...– Qarshi, 2010. – B. 119.
34. Нурманов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. –Т.: Фан, 1982. – 152 с.

Inglizcha – o‘zbekcha so‘zlar lug‘ati

1. Badiiy uslub – belles-lettres style
2. Dars – lesson
3. Darslik – textbook
4. ekstralingvistik bilim – extralinguistic knowledge
5. etimologik ildizlar – etymological roots
6. hissiy bo‘yoqdorlik – emotional coloring
7. Izlanish - searching
8. Lingvomadaniyat – linguoculturology
9. madaniy tushuncha – cultural concept
10. Metodika – methodology
11. O‘qitish – teaching
12. O‘qituvchi – teacher
13. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi – the methods of teaching Uzbek language
14. olamning g‘oyaviy manzarasi – conceptual picture of the world
15. Ona tili – mother tongue
16. Pedagog – educator
17. Rivojlanish – progress
18. Saboq bermoq – to give lessons
19. Sinov – trial
20. Ta’lim – study
21. Til – language
22. tilning leksik va sintaktik o‘ziga xosligi – lexical and syntactical idiosyncrasy
23. tilning leksik va sintaktik o‘ziga xosligi – lexical and syntactical idiosyncrasy
24. Tilshunos – linguist
25. Uslubiy vositalar – Stylistic devices
26. Usul – procedure